

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI
VAZIRLIGI
AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI

O'zbek adabiyoti kafedrası

**“Odil Yoqubov qissalarida zamondoshlar obrazi
talqinidagi o'ziga xoslik”
(Bitiruv malakaviy ishi)**

Ilmiy rahbar:

f.f.d. prof. K.Quramboyev

NUKUS - 2017

Mundarija

O.Yoqubov o'zbek nasrining yirik namoyondasi (kirish o'rnida)

Bitiruv malakaviy ishining umumiy tavsifi

I BOB. Odil Yoqubovning hikoya va qissalarida zamondoshlar obrazi

1.1.Hikoyachilikdagi ilk tajribalar.

1.2.Qissalarida yoshlar obrazi talqini.

(“Muqaddas”, “Bir feleton qissasi” va boshqa qissalar misolida)

II BOB. Yozuvchi qissalarida ma'naviy-axloqiy mavzu yalqinidagi o'ziga xoslik

2.1.”Qanot juft bo'ladi” qissasida murakkab taqdirli yoshlar obrazi talqini.

2.2.”Billur qandillar” qissasida muhabbat mavzusi tasviri.

III BOB. Adib ijodiga masub asarlarni umumta'lim maktablarida o'rgatish usullari

3.1. Umumta'lim maktablarining 6-sinflarida “Muzqaymoq” hikoyasini o'rganish.

3.2. “Ulug'bek xazinasini” romanini o'rgatishda yangi pedagogic texnologiyalardan foydalanish.

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Jamiyatda katta tarixiy burilishlar, olamshumul o'zgarishlar ro'y bergan kunlar avlodlar xotirasida umrbod saqlanib qoladi, hatto har bir shaxs taqdirida o'z "izi"ni qoldiradi, osoyishta o'tgan turmush taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatsa-da odatdagi oddiy voqealarday o'tib ketaveradi.

Iste'dodli ijodkorlarning faoliyati nimalari bilandir shunga o'xshaydi: agar baholi qudrat qalam tebratb, ancha-muncha tuzuk asarlar yozib yursa, badiiyat olamimining oddiy zahmatkashi sifatida taniladi, bordi-yu, uzoq yillar mobaynida jonini jabborga berib, kunni tunga ulab fidoyilik qilib, butun kuchini so'z san'atining ravnaqiga safarbar etsa, o'ziga xos badiiy tafakkur olamini yaratsa, to'laqonli obrazlar, yetuk xarakterlarga jon ato qilsa, ko'pchilikning e'tiborini muhabbatiga sazovor bo'ladi.

Odil Yoqubov mana shunday adib darajasiga ko'tarildi. Lekin birdaniga emas, juda mashaqqatli izlanishlar, zalvarli qadamlar, kuchli harakatlar, intilishlar bilan ko'tarildi. Xa, u murakkab ijodiy yo'lni bosib o'tdi. Bu yo'lda yozuvchiga qancha - qancha quvonchlar, ulkan zafarlar, ba'zan muvaffaqiyatsizliklar, g'am alamlar hamdam bo'lgan.

Bu iste'dod sohibi o'zining chorak asrdan oshib ketgan ijodiy izlanishlari davomida Abdulla Qodiriy, Oybek, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor kabi so'z ustalarining an'alarini davom ettirib, yangiliklar bilan boyitib, yuksak pog'onaga ko'tarish yo'lida tinmay qalam tebratayotir. Shu bilan birga rus klassik adabiyoti, jahon adabiyoti buyuk namoyandalarining, ayni choqda, Chingiz Aytmatov, Vladimir Tendryakov, Valentin Rasputin, Vasiliy Shukshin, Mikolas Slutskis, Vasiliy Belov kabi mashhur adiblarning ijodiy tajribalari u uchun bebaho saboq vazifasini bajardi. Natijada, Odil Yoqubov hozirgi zamonning peshqadam adiblari safidan o'rin oldi.

Bunga ishonch hosil qilish uchun uning ijodiy takomilini ko'rsatuvchi voqealarni, asarlarini tahlil qilishi zarur, ammo bu o'rinda biz Chingiz Aytmatov

va Mustay Karimdan yozuvchi nomiga kelgan ikki maktubga diqqatingizni jalb qilmoqchimiz.

Buyuk qirg'iz prozaigi va mashhur boshqird shoiri, Odil Yoqubovning "Ulug'bek xazinasini"ni zo'r qiziqish bilan o'qib chiqqanligini alohida ta'kidlaydilar:

"Badiiy quvvati bilan yuksak, asl, g'oyatda qimmatli bo'lgan bu asar meni to'lqinlantirib yubordi, bu esa qiziqarli kitobning birinchi alomati. Bundan ham muhimi shundaki, romanni o'qirganman, menda turk sulolasiga oid faxr va g'urur tuyg'usi uyg'ondi. Ulug'bek shunday dahoki, u bizning butun dunyo voqealari to'g'risida mulohaza yuritishimizga, dardlashishimizga haq-huquq beradi, u bizning vijdonimiz, aql -idrokimiz, u ayni choqda yer yuzining, jahonning bizga insoniyatning buyuk tajribasiga muvofiq baho berishini taqozo qiladi".

Chingiz Aytmatov fikrini davom ettirib, roman Ulug'bek dahosinining fojiasini, mardligu matonatini gavdalantirgani tufayli yoqimli taassurot tug'dirganligini alohida uqtirib ko'rsatadi.

Mustay Karimning quyidagi mulohazalari ham Chingiz Aytmatov fikrlariga yaqin, ular bir-birlarini to'ldiradi, bir-birlarini oydinlashtiradi.

"Romanning g'oyaviy qudrati, emotsional ta'sir kuchi juda zo'r. Ayniqsa, uning zamon bilan hamohang bo'lganligi, chin ma'nodagi zamonaviy asar darajasiga ko'tarilganligi muhimdir... Zotan, tarixiy asar odamlarni hozirgi kunda munosib turmush kechirishga, yaxshi yashashga da'vat etishi kerak. Sizning romaningiz shunday asarlar sirasiga kiradi".

Hukm-xulosalardagi bunday mushtaraklik "Ulug'bek xazinasini"ning barkamol asar ekanligidan guvohlik beradi.

Chingiz Aytmatov yoki Mustay Karim singari ijodkorlar olqishiga sazovor bo'lish har qanday adibga musharraf bo'lavermaydi. Odil Yoqubov musharraf

bo'lgan ekan, bu uning ijodiy parvozlari salmoqli samaralar keltirganligini ko'rsatadi.

Adbiyotimizda sevimli va ardoqli Odil Yoqubovning o'z o'rnini bor. Adib yaratgan qator asarlar zamondoshlarimiz qalbidan bejiz joy olmagan.

Odil Yoqubov 1926- yilda CHimkent viloyatining Turkiston tumanida tug'ildi. 1956- yilda ToshDUning filolgiya fakultetini tugatib, o'z ijodiy faoliyatini 1957- yildan boshlaydi. Adib adabiyot olamiga kirib kelishi haqida shunday xotirlaydi:

“O'z ijodlari bilan menga ta'sir ko'rsatgan yozuvchilardan Abdulla Qodiriy va Oybeklarni aytgim keladi. G'ofur G'ulom prozasini juda qiziqish bilan kuzatdim, keyinchalik esa Abdulla Qahhorni chuqurroq tushunishga muaffaq bo'ldim.”

Xullas, O.YOqubov adabiyot olamiga kirib kelishiga yuqoridagi adiblarimizning ijodlari katta ta'sir etgan.

1956-1959-yillarda O'zbekiston yozuvchilar uyushmasida maslahatchi, “Literaturnaya gazeta”ning respublikamizning maxsus muxbiri “O'zbektelefilm” kinostudiyasida va kinomatografiya qo'mitasida bosh muharrir, G'afur G'ulom nashriyotida bosh muharrir o'rinbosari bo'lib ishladi. So'ngra “O'zbekiston san'ati va adabiyoti” ro'znomasining bosh muharriri bo'lib xizmat etdi.

Yozuvchining “Bir feleton qissasi”, “Tilla uzuk”, “Ko'lanka”, “Billur qandillar” kabi qissalari, “Ulug'bek xazinasini”, “Diyonat” va “Oq qushlar oppoq qushlar”, “Ko'hna dunyo”, “Adolat manzili” kabi romanlari kitobxonlar e'tiboriga tushgan. Bundan tashqari yozuvchining “Chin muhabbat”, “Aytsam tilim kuyadi, aytnamam- dilim” kabi komediyalari Hamza nomidagi o'zbek akademik drama teatri sahnasida qo'yildi. “Olma gullaganda”, Yurak yonmog'i kerak” kabi pyessalari ham respublikamiz teatrlarida namoyish qilingan. U mohir tarjimon, munaqqid, publitsist sifatida ham barakali ijod qilgan.

O.Yoqubovning “Tengdoshlar” nomli ilk qissasi 1951- yilda nashr etilgan. Bu vaqtda muallif endigina 25 ga toʻlgan edi. Mashaqqatli bolalik yillari, otasining nohaq ayblanishi, frontga ketgan, kattalarning oʻrnini toʻldirish kabi hodisalar asarda oʻzining badiiy ifodasini topgan edi. Bu qissa muallifning birinchi qissasi boʻlgani uchun ham kamchiliklardan holi emas edi. Bu haqida adabiyotshunos M.Qoʻshjonov shunday fikr bildiradi: “Tengdoshlar” qissasida maʼlum bir gʻoyaviy aniqlik boʻlmadi. Yozuvchi voqealarni aniq bir maqsadga boʻysundira olmadi. Boshqacha aytganda, yozuvchi hayotni duch kelgan voqealarini asarga kiritaverish yoʻsinida tasvirladi.

Odil YOqubov birinchi qissasining boʻshligini sezdi, qalamini yaxshiroq qayrash maqsadida kichik janrga hikoyaga oʻtdi. Bir qancha durust hikoyalar yozdi. “Yangi yil kechasida”, “Ikki muhabbat”, “Togʻ qizi”, “Dastlabki qadam” shular jumlasidandir. Bu hikoyalarida yozuvchi hayotining badiiy asar talabiga muvofiq real detallarni topib, kitobxon xayolini shunga jalb etishga harakat qildi, qismlarni aniq bir gʻoyaviy yoʻnalishga boʻysundirib, qissada yoʻl qoʻyilgan naturalizmdan qutula oldi.

Odil YOqubovning “Muqaddas” va “Larza” qissalarida ham shiddatli va keskin hayot kartinalari, xarakterlar kurashining oʻziga xosligi oʻz ifodasini adibning navbatdagi qissalaridan keyingi romani, bevosita avvalgi qissalarining davomiyligiga oʻxshab tuyulgan “Er boshiga ish tushsa” (1966) romanidir. Bolalik va oʻsmirlik yillaridagi kechmishlari ushbu romanda oʻzining toʻlaqonli ifodasini topgan. Oʻ.Hoshimovning “Dunyoning ishlari” asaridagi kabi bu romanda ham urushning zahmatlari, oʻzbek ayolining sadoqati, irodasi, burchi xar tomonlama badiiy mukammal ravishda tasvir etiladi. Yoshlarning boshiga tushgan musibat, ularning yoshlariga mos boʻlmagan nomutanosiblik ancha irodali, aqlli qilib qoʻyadi.Yaʼni, “Er boshiga ish tushsa, er yigit nima qilishi kerak?” degan savolga romandan javob topamiz.

Unda yozuvchining oʻziga xos uslubiy qirralari namoyon boʻlgan. Bu eng avvalo xarakterlar yaratishdagi koʻp planlik, koʻp yoʻnalishli bayon usulining

qo'llanilishidir. Roman bosh qahramoni Mashrabning hayot yo'li romanda o'z ifodasini topadi.

1977 yilda nashr etilgan "Diyonat" romanida O.Yoqubov prozasiga xos bo'lgan hayotiy muhim xislatlar to'laligicha aks etadi. Avvalgidek bu asarda ham san'atkor nozik kompozitsiyasini yaratadi, unda har bir personajning o'ziga xos ijro o'rni, voqea va hodisalarga munosabati bor.

Romanda qishloq hayotidagi kishilar ruhiy olami, uning jiddiy o'zgarishlari, inson diyonati va qudratining buyukligi mahorat bilan tasvirlanadi.

"Diyonat"da e'tiborga molik muhim ma'naviy muammo ko'tarilganligi tufayli kitobxon qattiq hayajonga tushadi. Qahramonlarning har bir qilmishi, harakati, hatto o'y fikrlarigacha kuzatib boradi.

"Diyonat" romani o'zbek romanchiligining jiddiy yutug'i sifatida tan olinishining bosh omili shundaki, unda xarakter yaratishdagi ma'lum sxemachilik qat'iy qolipdan chiqilib yangicha usullardan foydalaniladi. Romandagi xarakterlar o'z yo'llarini axtaradilar, chuqur ruhiy va dramatik kechinmalar xarakterlarning mohiyatini har jihatdan chuqur ochib beradi. Romanda davrning yirik ma'naviy muammolari o'z ifodasini topadi. "Diyonat" tom ma'nodagi o'zbek romanchiligidagi psixologik romandir. Ayniqsa, Otaqo'zi va Normurod Shomurodov to'qnashuvi qattiq ta'sir etadi. Otaqo'zi romanda o'qituvchilikdan kolxoz raisi darajasiga ko'tarilgan ziyoli rahbar sifatida, Shomurodov esa mashhur olim, yoshini yashab, oshini oshab bo'lganda ham o'z e'tiqodiga sobiq keksa, fidoiy kishi tarzida ko'rinadi. Otaqo'zi va Shomurodovlar ba'zan bir-birlaridan voz kechish darajasigacha borib etadilar. Xarakter mantig'idan kelib chiqib yaratilgan bunday situatsiya to'qnashuvlar tabiiy chiqqan, badiiy jihatdan mukammal tasvirlangan.

Domla Shomurodov bilan Qudratxo'ja o'rtasidagi qarama-qarshilik ham kechagina paydo bo'lgan emas. Aynan shu ziddiyatlar zahirida davrning o'ziga xos muammolari o'z ifodasini topadi, badiiy konflikt darajasiga ko'tariladi.

Romandagi aksariyat ishtirokchilar manfaat nuqtai nazaridan Otaqo'zi atrofida birlashadilar. Adolat va haqsizlik, haqiqat va fidoiylik, nohaqlik o'rtasida keskin kurash bo'ladi. Ammo haqiqat g'alaba qozonadi. Domla Shomurodov g'alaba qiladi. Muallif niyati aynan shu obraz aspektida tasvirlangandek, Diyonat tom ma'nodagi o'zbek romanchiligining juda katta yutug'idir.

Odil Yoqubovning keyingi yillarda yaratgan navbatdagi romani "Oq qushlar oppoq qushlar" romanidir. Romanda muallif davrning dolzarb muammolari yana insofu diyonat, halollik va nohaqlik, mehr va sadoqat singari muammolarni hal etishga qaratadi.

Xullas, O.Yoqubovning roman va qissalari o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Biz yuqorida adibning ayrim roman va qissalari haqida umumiy fikrlarni aytish bilan cheklandik. Uning roman va qissalarida o'z yechimini kutib turgan qator muammolarni hal etilganligining guvohi bo'ldik.

O.Yoqubovning qator tanqidiy maqolalari va yosh yozuvchilarga nisbatan aytgan ilmiy fikrlari ham bor. Ularda yosh yozuvchilarga yordam beradigan zarur fikrlar ifodalangan. Jumladan, hamyurtimiz yozuvchi A.Ibodinov haqida shunday fikr bildiradi: Jumladan, Alisherning ilk hikoyalarini o'qiganimda, meni bir narsa maftun etadi, u ham bo'lsa, yosh yozuvchi tilining ravonligi, tiniqligi, jumlar tiniqligi, soddaligi va eng muhimi tasvir uslubining o'ziga xos jozibasi edi. Uning birinchi hikoyalaridayoq chin iste'ododdan dalolat beruvchi ziyrak kuzatishlarga butun manzarani ko'z oldingizga "lop" etib keltirib qo'yadigan aniq detal va qahramonlar ruhiy olamning nozik tasviriga shu qadar boy ediki, bu yigit o'shandayoq juda katta umid uyg'otgandi.

Umuman aytganda, O'zbekiston xalq yozuvchisi O.Yoqubovning o'zbek adabiyotida o'ziga xos o'rni bor. XX asr o'zbek prozasini O. Yoqubovning qissa va romanlarisiz tasavvur etish mumkin emas.O. Yoqubov o'zbek kitobxonlarining sevimli adibidir.

I BOB. ODIL YOQUBOVNING HIKOYA VA QISSALARIDA ZAMONDOSHLAR OBRAZI

1.1. Hikoyachilikdagi ilk tajribalar

Nihol o'tqazildi kunlar o'tib ildiz otib , barg chiqara boshladi. So'ngra novdalari pishib , meva tugadi, bungacha bir necha xil o'zgarish ro'y beradi, kurtak yozadi g'unchalaydi. Nihol ildiz otib kurtak chiqarganda ham, gullaganda ham, meva tuggan chog'da ham alohida go'zal bo'lib, sehrli bo'lib tuyuladi va bu go'zallik sehr kishini maftun etadi, shodligu quvonchlarga ko'mib tashlaydi. Lekin undagi qayta tug'ilish, o'sish - o'zgarish holatlarini ipidan ignasigacha aql bilan to'la idrok etib, yurak bilan sezib olishingiz ancha mushkul. Niholning kamolatgacha bo'lgan o'sish o'rganish jarayonini butunligi, yalitligi bilan tasavvur qilish mumkin, xolos. Bordi-yu, kecha-kunduz yonida bo'lib, uni muttasil kuzatganda ham o'sha jarayonni ko'rishingiz mumkin emas. To'rirog'i, har ko'rganingizda har xil rangga, har xil libosga burkanganligiga guvoh bo'lasiz, biroq bu ranggu liboslar qaysi soat, qaysi daqiqada ro'y berganligini aniqlash qiyin. Bugun kurtak yozgandi, besh-olti kundan keyin gulladi, so'ngra hosilga kirdi deb qo'ya qolasiz.

Inson hamisha mana shunday o'sish-o'zgarish , tug'ilish sehri-yu, sirlarini ochishga intilaveradi.

Har bir yetuk, barkamol asarning tug'ilish, o'sish va pishib nihoyasiga yetish, qog'ozga tushirilish jarayoni nimalari bilandir o'sha niholning tug'ulish, o'sish-o'zgarish holatlarini eslatadi.

Albatta, niholning" tarjimai hol"ini tabiat va inson yaratadi, ijodda bu vazifani iste'dod o'z zimmasiga oladi. Iste'dodning to'qson to'qqiz foizi mehnatdir, degan hikmatli gap o'z kuchini yo'qotganicha yo'q. Lekin iste'dod mehnati, mashaqqatlari bilan sirli, sehrli, jozibali bo'lib, kamyob, nodir va noyob mo'jizadirki, uning mevalari ham mana shunday ma'no, salmoq kasb etadi.

Istedod muhri bosilmagan, o'qish-o'rganish natijasi sifatida paydo bo'lgan asarlarning "tarjimai holi" o'ta jo'n bo'lib, siru sehriga, jozibaga mutlaqo yotdir.

Odil Yoqubovning 50-yillarda yozilgan prozaik va dramatik asarlari, chunonchi, “Tengdoshlar”, “Ota izidan” qissalari, “Ikki muhabbat”, “Dastlabki qadam” hikoyalar to’plamlari, “Chin muhabbat”, “Aytsam tilim kuyadi, aytmasam dilim”, “Olma gullaganda” pyesalari talantsiz yozilgan, ularda iste’dod muhri yo’q deb bo’lmaydi. Ammo, shunga qaramasdan ularning yozilish tarixi unchalik murakkab emas. Yozuvchi boshidan kechirganlarini, ko’rgan-bilganlarini qog’ozga tushirib qo’ya qolgan, deysiz. Ammo iste’dod bilan, ilhom bilan bitilgan asarda yozuvchi o’zi ko’rgan bilganlarini soqit qilib, boshqa narsani ifodalaydimi? Yo’q, bunday vaziyatda ham qalamkash hayotiy bilimni ishga soladi, lekin unga yanada salmoqliroq, yanada qimmatliroq biror narsa qo’shilib biz sezmagan, anglamagan kashfiyot, yangilik yaratadi. Iste’dod shunday sirli, sehrli mo’jizaki, u yozuvchini hatto o’zi sezmagan holda hech kimga ayon bo’lmagan boy, go’zal, hammaga zavq- shavq, muhim ijtimoiy saboq baxsh etadigan olam yaratishga majbur etadi, ilhomlantiradi.

“Tengdoshlar”larning qahramonlari, undagi voqealar ham, “Muqaddas”dagi syujet, konflikt ham hayotdan olingan, to’qib bichilgan uydirma emas. Hatto aytish mumkin: birinchi qissadagi fikrlar, mulohazalar, kuzatishlar hozirgi maktab yoshidagi bolalar hayotiga mos keladi, ammo san’at asarida faqat mos kelishning o’zi yetarli emas. Xolbuki, ayrim adabiyotshunoslar ijodiy jarayonni yozuvchi va uning asarlari tarjimai holini o’rganishda asardagi qahramonlarning protatiplarini izlab topish, voqealarning muayyan muhitda bo’lib o’tgani yoki bo’lib o’tmagani to’g’risidagina mulohaza yuritish bilan cheklanib qolmoqdalar, badiiyat mezonini belgilashda faqat shu nuqtayi nazardan kelib chiqib ish ko’rmoqdalar.

Bordi-yu biz shunga rioya qilib, shuni haqiqat deb Odil Yoqubov asarlariga baho bersak, ularning barchasini ijodiy muvaffaqiyat deb e’tirof etmog’imiz zarur. Chunonchi, “Ota izidan” qissasida tarixchi Shukur Sultonovning grajdanlar urushida faol qatnashgani, sovet hokimiyatini himoya qilish yo’lida halok bo’lgan otasi Sobirjon Sultonovni xoin deb tuhmat toshlarini yog’dirib yurgan Qosimov degan shaxsni hech kim rad etolmaydigan dalillar bilan fosh etgani haqida gap

boradi. Asardagi voqealar hayot haqiqatiga zid emas. Ularning aksariyati turmushda ro'y bergan. Izlasangiz, bitta emas, bir necha prototiplarni uchratishingiz mumkin. Chunki, asarda tasvirlanganday holatlar faqat grajdanlar urushi davridagina emas, balki, boshqacha shakl, boshqacha ko'rinishda hozir ham bo'lib turadi. Binobarin, "Ota izidan" barkamol asar deb xulosa chiqarish mumkin, biroq bu xulosani to'g'ri deb bo'lmaydi. Zero, nihoyatda zaif asardan ham hayotiy hodisalarning bir parchasini, juda bo'lmagan bir zarrachasini topish mumkin. Biroq bu uning baquvvatligini taminlamaydi.

Odil YOqubov ilk izlanishlari, asarlariga qattiqqo'llik bilan talabchanlikni susaytirmagan holda baho beradi: "Men bu pyessalarni ("Chin muhabbat" "Olma gullaganda") judayam yerga urib yubormoqchi emasman. Ular o'sha paytlarda yozilgan va hozir tanqidchilar ro'yxatida yurgan pyessalardan farq qilsa salgina farq qilar. Lekin, bundan menga nima foyda? Men endi bu asarlarning saviyasini ham, qimmatini ham yaxshi bilaman-ku? Adib yoshi bir joyga borganda orqasiga o'girilib qarashi, bosib o'tgan yo'lga bir nazar tashlashi, o'z ijodiga sovuqqonlik bilan baho bera olishi kerak, yillar sinovidan o'ta oladigan bir ish qila oldimi, birorta haqiqiy asar yarata oldimi, yo'qmi- loaqal o'ziga o'zi hisob berishi kerak!"

Yozuvchining "yillar sinovidan o'ta oladigan bir ish qilishi", "loaqal o'ziga o'zi hisob berishi"ni anglashi uchun juda ko'p mehnat sarflanadi.

Odil Yoqubovning "Ikki muhabbat" deb nomlangan hikoyalar to'plamini qayta o'qib chiqqanimizda bunga yana bir karra ishonch hosil qildik.

To'plamga kiritilgan barcha asarlar hayot masalalarini hal qilish nuqtai nazaridan, mavzu jihatidan, hayotiy materialning yo'nalishi, mazmuni jihatidan adabiyotga bugungi kunda 70-yillarda kirib kelayotgan yosh qalamkashlarning ayrim izlanishlariga o'xshab ketadi. Odil Yoqubov ham asosan muhabbat oilaviy mojoralar, intim dunyoga murojaat qilgan, qahramonlari ko'pincha yoshlardan bo'lib, mustaqil yashash, jamiyatda o'zining o'rnini topish uchun kurashadi.

“Ikki muhabbat” hikoya. Yozuvchining nima demoqchi ekanligi nomidan anglashilib turibdi. Darhaqiqat, Sobirjon, hikoya qahramoni institutda o’qib yurganida Nasiba ismli qizni sevib qoladi, lekin qiz yigitning qishloqqa ketishini emas, shaharda qolib olim bo’lishini xohlaydi, niyati amalga oshishiga ko’zi yetmagach, sevgisidan voz kechadi. Yigit esa kolxozga agronom bo’lib ishga jo’naydi, tajriba orttiradi, obro’ qozonadi, ayni choqda Mahbuba ismli muallimani sevib qoladi, ikkinchi muhabbati unga baxt-saodat, quvonch bag’ishlaydi.

Ikkinchi hikoyasi “Bahor kunlaridan birida” deb atalib, unda Ra’no va Rahimjonlarning traktorchi bo’lib birga ishlagani, o’sha asnoda bir-birlarini yoqtirib qolganligi, to’g’rirog’i, dastlab yigitning qizga sovchi qo’ygani, qiz esa dabdurustdan rad javobini bergani, ammo pirovardida yigitga ishq tushib qolgani so’zlanadi.

“Tog’ qizi” – uchinchi hikoyada voqea tog’dagi chorvadorlar davrasiga ko’chiriladi va u yerda biz amaliyotga borgan Vohidjonning zootexnik qiz Saodatga oshiqu beqaror bo’lib qolgani, ammo qizning boshqa yigit bilan ahdu paymon qilib qo’ygani, shunga qaramasdan Vohidjonga insoniy muomalada bo’lganligi qalamga olingan.

“Yangi yil kechasi” degan hikoyaning markazida ham sevgi muammosi turadi...

Nasriy tashbehlaridagina emas, balki sahna asarlarida, jumladan, “Chin muhabbat”, “Olma gullaganda”, “Yurak yonmog’I kerak”da ham Odil Yoqubov intim dunyoga nigoh tashlab o’tadi. Zotan sevgi ijodda ham, yozuvchi-yu, kitobxonni, hatto faqat yoshlarnigina emas, ba’zan keksalarni ham o’z komiga tortadi, hammaning huzur-xalovatini oladi. Ishqi kesak deganlari bejiz emas.

Bir qarashda “Ikki muhabbat” to’plamiga kiritilgan hikoyalarida va ilk dramatik asarlarida Odil Yoqubov boshqa qalamkashlarning muhabbat mavzusini yoritishdagi omillari, vositalaridan foydalanganu, biroq o’zi mustaqil ravishda hali biror muhim narsani yaratishga ulgurolmagan, degan taassurot tug’iladi.

Ma'lumki, sevgi g'oyatda go'zal insoniy, pihoniy, aql bilan tushunib bo'lmaydigan murakkab tuyg'u bo'lib uni iqtisodiy manfaatga bo'ysundirilsa, fojiali oqibatga olib keladi.

“Ikki muhabbat”dagi Nasiba shunday fojiani keltirib chiqaruvchi shart-shaoitda tarbiyalangani uchun Sobirjonning sof, pok tuyg'usini qadrlay olmaydi, iliq, samimiy munosabat muomalaning manbayi chinakam insoniylikda ekanligini anglab yetmaydi, natijada baxtini poymol qiladi. Qishloqda tug'ilib o'sgan, tahsil ko'rgan, institutni tamomlab, yana o'z ona qishlog'iga o'qituvchi bo'lib kelgan Mahbuba Sobirjonning sevgisini insoniyligini chin qalbdan ardoqlaydi va murod maqsadiga erishadi.

Qarang-a, biri oqu, ikkinchisi qora, biri yaxshi-yu, ikkinchisi yomon, biri tushunadi, biri tushunmaydi, biri xatoga yo'l qo'yadi, ikkinchisi yanglishmaydi adashmaydi...

Hayot mazmunini shu tarzda talqin etish “Chin muhabbat”, “Aytsam tilim kuyadi, aytnasam-dilim” pyessalarida uchraydi. Faqat ijtimoiy voqealar, mehnat jarayonigina emas, balki mantiqqa mos tushavermaydigan sevgi ham nuqul “oqu qora”, “yaxshi-yu yomon” prinsipiga muvofiqlashtiriladi. “Chin muhabbat”ning asosiyqahramoni agronom qiz Muqaddas Olimjonga doimo chigitni kvadrat uyalab ekib, paxtaning yangi navini yaratishga kirishgani uchungina ko'ngil qo'ygan deb ta'kidlanadi. “Olma gullaganda” pyessasida esa bu borada yuksak “cho'qqi” zabt etiladi: asar qahramoni Mashrab: “Duyoda olmaga nima yetsin? Olmaday go'zal, olmaday fusunkor narsa bormi? Siz kulmang, bir kun keladiki, butun jahonni ajoyib bir olmazorga aylantiramiz! Hatto ko'chalardagi tolteraklar o'rniga ham olma ekamiz. Yo'lovchilar shundoq qo'llarini cho'zadilaru olib ketvzeradilar”, deb orzu qiladi va orzusini amalga oshirish yo'lida hamma narsadan, hatto baxtidan, sevgisidan, sevgilisidan voz kechadi, sof va pok tuyg'usini qurbon qiladi.

Odil Yoqubovning uch jildlik tanlangan asarlarining birinchi jildiga Ozod Sharafiddinov “Ijod dovonlari osha...” deb nomlangan soʻz boshi yozib, unda yozuvchining mustaqil adib sifatida shakllanishi, kamolot bosqichini zabt etishi, keng kitobxonlar orasida shuhrat qozonish toʻgʻrisida ibratli mulohazalarni oʻrtaga tashlaydi. Taniqli tanqidchimiz adibning ilk ijodiy izlanishlari mahsuli boʻlgan bir necha hikoyalar, qissalar, pyessalarni nazarda tutib shunday deydi: “bu asarlar hali koʻpgina nuqsonlarga ega, eng muhimi esa- badiiy asarga jon ato qiladigan chinakam hayotiylikdan uzoqroq asarlar edi”.

Bu fikrga umuman qoʻshilganimiz holda shuni alohida taʼkidlashimiz lozim: deyarli har bir hikoyasida, qissa-yu, pyessasida chinakam hayotiylik belgilari, alomatlari mavjud ediki, ular Odil Yoqubovning kelgusidagi ijodiy kamoloti uchun mustahkam zamin vazifasini oʻtadi.

1.2. Qissalarida yoshlar obrazi talqini (“Muqaddas”, “Bir feleton qissasi” va boshqa qissalari misolida).

50-yillarning ikkinchi yarmidan 60-yillarning boshigacha boʻlgan davrda maʼnaviy-madaniy turmushning barcha sohalarida jiddiy oʻzgarishlar, katta koʻtarilishlar ruhi kezib yurdi va bu ruh badiiy ijodning yuksalishiga samarali taʼsir koʻrsatdi. Birgina oʻzbek nasrchiligida “Sinchalak”, “Boʻrondan kuchli”, “Uch ildiz” singari asarlar paydo boʻldiki, ulardagi hayotiylik, haqqoniylik shabadasi “Muqaddas” qissasining yozilishiga ham turtki berdi, deb aytish mumkin.

Bu qissaning taʼsir kuchi qanchalik zoʻrligini tasavvur qilishingiz uchun kichgina bir faktga eʼtiboriningizni jalb qimoqchimiz. Adabiyotshunos olim, tanqidchi Norboy Xudoyberganov shunday deydi: “Kamina dars beradigan ToshDUning filologiya fakultetida imtihon olayotganimizda boʻlgʻusi talabalarimizda biri “Muqaddas”ni yodaki oʻqiy boshladi”...

Sheʼni yoddan oʻqiganda hech kim ajablanmaydi. Lekin nasrni yoddan oʻqish... Yana hikoya yoki novellani emas, qissani, yaxlit qissani xotirada

saqlash... Buni uddalash ancha qiyin va murakkab, ammo yod o'qishga iste'dodi zo'r bo'lgan odam bu murakkablikni, qiyinchilikni bartaraf etadi, deyishingiz mumkin. Ha, bartaraf etadi, biroq yoddan o'qish ko'p jihatdan asarning sifatiga ham bo'g'liq.

“Muqaddas”da shunday sehr, joziba bor ekanki, u kitobxon qalbini to'lqinlantiribdi, yuragini jizillatibdi, pirovardida xotirasiga mahkam o'rناshib qolibdi, asar ta'sirchanligining siri yozuvchi iste'dodiga , shijoatiga bo'g'liqdirki, buni “Ikki muhabbat”, “Olma gullaganda”, “Chin muhabbat”da ko'ramiz, biroq u “Muqaddas”da to'la o'zini namoyish qildi. Natijada qalb qalbgа , yurak yurakka tutashganday kuchli tebranishlar to'lqinlanishlar hosil bo'ldi.

Agar “Muqaddas”ning ijtimoiy salmog'i yuksak bo'lmasa, ko'plab yuraklarni to'lqinlantirganiga qaramasdan tezda xotiradan ko'tarilib, izssiz yo'qolib ketishi mumkin edi. Odil Yoqubov shunga erishganki, shaxsiy kechinmalar, shaxsiy manfaatlar zahirida yashirinib yotgan jamiyat miqyosida katta ahamiyat kasb etgan g'oya haqqoniy obrazlarda gavdalanadi.

Qissa qahramoni Sharif o'ninchini bitirib o'qishga kiraolmaydi, konkursdan yiqiladi. Zavodda bir yil ishlagandan keyin, “institutga imtihon topshirib ko'r, kira olsang yaxshi, kira olmasang ,sendan nima ketadi” degan maslahatga binoan harakat qiladi. To'g'rirog'i, harakat qilishga bir muhim narsa majburlaydi: hujjatlarini topshirmasdanoq “razvedka” uchun institutga borganda bir qizni uchratadi-yu, unga muhtalo bo'lib qoladi.

Qissada shunga urg'u berib boriladiki, Sharif hali shaxs sifatida mustaqil dunyoqarashga ega emas, binobarin uning oiladagi, ijtimoiy muhitdagi xatti-harakatlari, butun faoliyati katta maqsadga,ulug'vor e'tiqodga bo'ysundirilmagan, shaxs sifatida to'la shakllanib yetmagan, turmush oqimida beixtiyor “suzib” yuradi, kemani o'zi boshqarishga qodir emas.Shuning uchun ham yigit ilk bor institutga kiraolmay qolganiga ham, jamiyatda o'ziga mustaqil o'rin

topaolmaganiga ham kuyunmaydi, qandaydir loqaydlik bilan yashaydi, zavodga ishga kirgandan keyinginakelajak to'g'risida o'ylay boshlaydi.

Yozuvchining maxsus izohlarisiz ham shu narsa anglashilib turadiki, Sharif jamiyatimizda yakkalanib qolgan shaxs emas, balki u kop'chilik yoshlarning xususiyatlarini o'zida mujassamlashtiradi. Oltmishinchi yillardagina emas, balki hozirgi kunlarda ham Sharif singari yoshlar oz emas.

Yozuvchi Sharif timsolida bir guruh yoshlarning tili-yu, dilida qaynab yotgan tuyg'ular, kechinmalarni mohirlik bilan ilg'ab olib jonli manzaralarda jilolantiradi.

Shunga diqqatimiz jalb etildi: Sharif ko'pincha voqealar ichida oqib ketaveradi-yu, o'zligini, asl qiyofasini oshkora namoyish qilavermaydi. Fikrlar oqimimg tasviridan anglashiladiki, yigit Muqaddasga talpinadi, unga ergashib institutga qadam qo'yadi, hujjat topshiradi, imtihonlarga tayyorgarlik ko'radi. Demak, u sevgi tufayligina oliy ma'lumot olishga rozi bo'ladi, ya'ni shaxsiy manfaatini ko'zlaydi. Axir, bu xudbinlik emasmi?

Qissa bosilib chiqishi bilan Sharif xudbinligi haqidagi fikrlar bayon etildi:

“Asardagi bosh masala,- deb yozgan edi o'sha paytda Matyoqub Qo'shjanov,- xudbinlik yo'liga tusha boshlagan bir yigitning to'g'ri yo'lga qaytishi masalasidir. Jamiyatimiz o'z tabiati, ijtimoiy mohiyati bilan ruhan sog'lom kishilar jamiyatidir. Qissaning bosh qahramoni Sharifjon o'z tabiati bilan xudbin emas. Ammo, Sharif shunday bir sharoitga tushib qoladiki, u o'zida xudbinlik paydo bo'lganligini ongli ravishda o'zi sezmay qoladi. Boshqacha qilib aytganda, Sharifdagi bu xususiyat ma'lum bir hayot sharoitining mahsuli bo'ladi”.

Bu mulohazalar shu ma'noda to'g'riki, Sharif o'zi istamagan holda boshqa birovning, so'ngra ma'lum bo'lishicha sevgilisining o'rnini egallaydi, bilimi, kuch-qudrati bilan emas, balki adolatsizlik orqali egallaydi (inshoni xufyona ko'chirib bahosini tanish- bilish orqali oshiradi) oqibatda qabihlik ko'chasiga kirib qolganligini sezib qoladi.

Sharif dastlabki paytlarda ham, hatto voqealar rivojining oxirgi nuqtalarida ham mana shunday xudbinlikka yuz tutganligini bilmaydi, bilib qolgandan keyin esa g'oyibdan kelgan baxtdan voz kechadi, institutni tark etadi. Bu o'ziga yarasha jasorat bo'lib, ko'pchilikning olqishiga sazovordir. Xuddi shu jasorati uchun Sharifning o'zi xohlamagan holda ongsiz ravishda yo'l qo'ygan nuqsonlari kechiriladi, chin inson sifatida ardoqlanadi, o'quvchi qahramonni qoralamaydi, unga achinadi, mardlik ko'rsatib adolat tantanasi uchun kurashchiga aylanganda esa yigitga hurmatimiz oshadi.

“Biz butun qissa davomida, - deb uqtiradi Ozod Sharafiddinov, - qalbimizda Sharifjonga nisbatan iliq bir mehr, xayrixohlik hislari jo'sh urayoganliginini sezib turamiz. Shuning uchun Sharifning adashishlarini ko'rganda qattiq afsuslanamiz, iztirobga tushushamiz”.

O'z xatti-harakatlari, qilmishlari to'g'risida Sharifning o'zi shunday xulosaga keladi: “Mening hech kimni ayblashga haqqim yo'q edi! Hammasiga yolg'iz o'zim aybdor edim. Bu narsaga o'z insofsizligim, sabrsizligim, irodasizligim sabab bo'ldi! Bo'lmasa, bir yil ishlab shuncha hurmat orttirgan, hunar o'rgangan zavodni shunday tashlab ketarmidim? U yerda orttirgan shuncha do'stlarimdan shunday osongina yuz o'girarmidim? Men tenngi yigitlar ham ishlab, ham o'qib, qiyinchiliklar bilan olishib, ular ustidan g'alaba qozonib yurgan bir paytda men sevgilimning joyini tortib olib, bunday sharmanda bo'lib qolarmidim?”

Diqqat qilinsa, qahramon o'z gunohini oshirib - toshirib ko'rsatayotganligi, o'zini o'zi haddan ortiq darajada jazolayotganligi, aybni faqat o'zining yelkasiga olib, boshqa gunhkorlarni soyada qoldirayotgani seziladi. Muallif ham, ayrim munaqqidlar ham bunga moyillik bildirayotganday bo'ladi. Aslida esa bu qisman to'g'ri bo'lib, aybning bir qismi Sharifning tevarak - atrofdagilarga, muayyan shart- sharoitga, muhitga taalluqli.

“Muqaddas”da mana shu muhit hayot haqiqatiga asoslangan holda ishonarli tasvirlangan, deb bo’lmaydi. Bunday qusur Odil Yoqubovning boshqa asarlariga xussusan “Larza”, “Bir feleton qissasi”, “Tilla uzuk” qissalariga ham u yoki bu darajada tegishlidir.

“Muqaddas” qissasiga joziba baxsh etgan, uni o’sha yillardagi adabiy hayotda salmoqli voqea darajasiga ko’targan, kitobxonlar ommasining mehrini qozonishiga sabab bo’lgan narsa shuki, adib ehtirossiz, loqayd bayonchilik roldan voz kechib, tasvirlanayotgan voqealarning mohiyatini tadqiq qilish yo’lidan boradi va buning natijasi o’laroq muhim hayotiy muammolarni o’rtaga tashlaydi”.

Ozod Sharafiddinovning bu fikri umuman to’g’ri bo’lib, ko’p jihatdan faqat qahramonlar taqdiriga nisbatan qo’llanilsa, o’zini oqlaydi. Muhitning, qahramon yashaydigan, harakat qiladigan shart-sharoitning ifodasida esa yozuvchi tadqiq-tahlilni bayonchilik bilan almashtiradi, tasvirlanishi lozim bo’lgan voqealarni izohlab, sharhlab berishdan nariga o’tmaydi. Bunday izohlar, sharhlar “Izlayman” qissasidan o’rin egallagan.

“Bu qissada, - deb yozgan edi Ibrohim G’afurov, - aqlni shoshiradigan favqulodda harakatlari yo’q. U o’tgan urushda yangragan so’nggi to’p sadolari, so’nggi tikkaygan qabrlar, o’tilgan so’nggi mashaqqatli yo’llar. Bu yo’llarda ulug’aygan, matonat orttirgan kishilar haqida hikoya qilinadi”. “Izlayman”da, - deb davom ettiradi fikrini tanqidchi, - o’n beshga qadar qahramonning bo’lishiga qaramasdan ularning deyarli barchasi o’zining xarakterli belgilari jonli chiziqlari bilan ajralib turadi”.

Bordi- yu, mana shu “ o’zining xarakterli belgilari, jonli chiziqlari bilan ajralib turadigan” qahramonlarga Odil Yoqubov iste’dodli adib sifatida qanday yangilik, qanday originallik baxsh etdi, degan savol tushsa unga “Izlayman”dan ijobiy javobni topib berish amrimahol.

Qissaning bosh qahramoni Davron G’oziyev tadbirkor, mohir, chin insoniy xususiyatlari bilan hammaning hurmatu muhabbatiga sazovor bo’lgan lahkarboshi-

komandir, kombat sifatida hadeb ta'riflanaveradi, biroq bu ta'rifning ichki mohiyati qisman yoritiladi, xolos.

“Bir feleton qisas”idagi Saltanat to'g'risida ham shunday deyish mumkin. Chunki, bu asardagi uslub “Izlayman”dagi uslubga juda o'xshab ketadi; har ikkala o'rinda yozuvchi qahramonlarni tashqi jihatdan xarakterlaydi, ular to'g'risida boshqa personajlarning - voqeani hikoya qiluvchilarning mulohazalarini bayon qiladi. Shunga qaramasdan “Bir feleton qissasi” “Izlayman”ga nisbatan yorqinroq, salmoqliroq bo'lib chiqqan. Buning boisi shundaki, unda voqealarni hikoya qiluvchi vazifasini bajaradigan jurnalist Uchqun mustaqil hayoti, mustaqil dunyoqarashi, mustaqil xarakteri bilan diqqatimizni jalb eadi. “Izlayman”dagi Mansurjon o'z xarakterining ayrim qirralarini, ayrim belgilarinigina oshkor etadi, yaxlit obraz, yaxlit tip darajasiga ko'tarila olmagan.

II BOB. YOZUVCHI QISSALARIDA MANAVIY - AXLOQIY MAVZU TALQINIDAGI OZIGA XOSLIK

2. “Qanot juft bo'ladi” qissasida murakkab taqdirli yoshlar obrazi talqini.

“Muqaddas”dan keyin Odil Yoqubov juda ko'p qissalar, hikoyalar yozdi, ulrning deyarli barchasi keng kitobxonlar ommasinng diqqatini jalb etdi. Muhabbat, intim dunyosirlarini tadqiq etishga bag'ishlangan “Tilla uzuk”, “Matluba” shular jumlasidandir. Garchi ular “shov -shuv”larga sabab bo'lmasada, yoshlarni qiziqtiradigan ma'naviy- axloqiy muammolarni hal qilishga ko'mak berdi. Sevgida soflik, samimiylik, poklikni ulug'ladi, oila qurishda yetti o'lchab bir kesish kerak, degan qoidaga asoslanib ish ko'rish lozimligini uqtirdi, har kim o'z baxti, muhabbatining tantanasi uchun kurash olib borshi lozimligini asoslab berdi.

To'g'ri ,bu asarlarda intim dunyo chigalliklari, go'zalligi - yu, zazq- shavq ishonarli tasvirlansa- da, inson oilada baxtiyor bo'lishi uchun ijtimoiy hayot, jamiyat taraqqiyitiga qandaydir “ip”lar bilan bog'langan holda ish olib borishga

majbur ekanligi keng miqyosda chuqur yoritilmadi. Boshqacha qilib aytganda, sevgi, oila, intim dunyo muammolari ijtimoiy hayot chigalliklari, murakkabliklari, ziddiyatlari bilan bog'liq holda tadqiq etilsa, bu mavzuda yangilik yaratish, shuhrat qozonadigan salmoqli asarlar yozish mumkinki, buni Odil Yoqubov "Qanot juft bo'ladi" qissasida isbotladi.

Odil Yoqubovning bu qissasi boshqa qissalaridan alohida ajralib turadi. Lekin nimalari bilan? Avvalo shuki, unda yozuvchining oldingi asarlaridagi g'oyaviy- badiiy yo'nalish izchillik bilan davom ettiriladi, ayni choqda yangi kuzatishlar, yangi fikrlar bilan boyitiladi. Chindan ham shundaymikin? Axir bir qarashda "Qanot juft bo'ladi" jo'n asarga o'xshaydi - ku? Xa, yuzaki qaraganda muhabbat, oilaga doir majoralar, me'morchilik, qishloq qurilishi, qishloq xo'jaligi haqidagi tortishuvlar qalamga olingan asarlardan fikrlanmaydiganday bo'lib tuyuladi. Aslida - chi? Aslida Odil Yoqubov an'naviy bo'lib ko'ringan muammolarga mustaqil yondashadi, ularning, ijtimoiy mohiyatini yoritishga alohida e'tibor beradi. Eng muhimi chuqur hayotiy asosga suyanadi.

Qissaning kuchli ehtiros, dard, his hayajonga yo'g'rilgani bejiz emas. Eng muhimi, yozuvchi aytmoqchi bo'lgan gap qahramonlar faoliyatiga, xatti - harakatlariga "yedirib" yuboriladi.

Asar tugunini oilaviy mojaro tashkil etadi: noo'rin "sho'xlik" qilgan xotinini eri ikki tarsaki bilan "mukofotlaydi!" Mana shu voqea qahramonlar taqdiridagi muhim o'zgarishlarga turtki qilib ko'rsatiladiki, bunga hech kim e'tiroz bildirmasa kerak.

Asar qahramoni Akram Sayyorani butun vujudi bilan sevadi, lekin u o'zicha mustaqil harakat qilib, Akramsiz tashrif buyuradi, u yerda har xil qiliqlar qiladi, me'yoridan oshirib xazillashadi, raqs tushadi. Akram bularning barchasini o'z ko'zi bilan ko'rib turadi. U ziyofatga tasodifan borib qoladi va uning bejo harakatlariga chek qo'ymoqchi bo'lib, uyiga olib ketmoqchi bo'ladi, ammo Sayyora uning so'zini inobatga olmaydi, mustaqilligini "namoyish" qilib o'sha joyda qolib ketadi.

Akram uyiga qaytadi, avvaliga bu unchalik ta'sir qilmaydi, lekin bora - bora u o'zini ikki o't o'rtasida turganday xis qiladi. Qadrdon kishisi tomonidan taxqirlangan va oyoqosti qilingan Akram xotiniga ikki tarsaki tushuradiki, buni bir jihatdan to'g'ri deb hisoblaging keladi. Biroq xotin kishiga qo'l ko'tarish yaxshimi?

Yozuvchi buni inkor qilmaydi. Lekin asosiy ayb urning gardaniga yuklanadi. Chunki Akram dag'al, qo'pol, u qo'rslik qildi, deydi adib.

Ma'lum bo'lishicha, hamma gap Akramning qishloqiligida ekan: "Akram rashk qilishga asos yo'qligiga, umuman buning hammasi shunchaki bir xazil ekaniga aqli yetib tursa - da, ming qilsa ham qishloqdan chiqqan odam emasmi, unga bu chinakam musiqa, raqs, ayniqsa xotini bilan Shavkatjonning bir - biriga muqom qilib qiyshanglashlari shunchalik xunuk va bachkana tuyuldiki, stolni bir tepib turib ketgisi keldi".

Nahotki, faqat qishloqdan chiqqan odam rashk qilsa degan savol tug'ilishi mumkin? To'g'ri, qishloqda xotin - qizlar bilan erkaklar yigitlar munosabatiga jiddiyroq qaraladi, ulardagi erkinlik shahardagilarnikiga nisbatan biroz cheklab qo'yilgan bo'ladi, yozuvchi shunga urg'u beryapti.

Asar qahramoni Akram o'ziga hadeb dakki beraverganini maqullaganday bo'ladi: "Akrm ... o'zidan g'ijinadi: "Qishloqi!" "Uning bu dag'alligi, arazchiligi qachon qolar ekan?" "Ilgari Akramni qiziga nomunosib deb ich - ichidan zil ketib yurgan Mavjuda xolaga Sayyoradagi bu o'zgarish dam xush yoqar, Akramni o'ylab: "Battar bo'lsin bu qishloqi!" deb g'ijinar, dam hozirgi yosh qizlar to'g'risidagi mish - mishlar esiga tushib ketib, yuragi shuvillar edi. Ayni zamonda garchand Sayyora "Qishloqining" adabini berib qo'yishni istasa ham, lekin undan ajrab, boshqa er qilishini ko'z oldiga keltiraolmas edi".

Akram ham, uning qaynanasi ham shunday fikrlaydi, qishloqilikni qoralaydi deb aytaylik, ammo muallif ularning har ikkalasiga birday munosabatda bo'lishi, ularni birday qo'llab-quvvatlashi insofdanmi?! Vaxolanki, Odil Yoqubov o'ta rashkchilik faqat qishloq ahliga xos bo'ladi, deganday mulohaza yuritadi. Bu faqat

Akram bilan Sayyora intim hayotidagi majoroning ifodasidagina emas, balki Sodiqvoy bilan Nortoji xatti – harakatlarining tasvirida ham ko'zga yaqqol tashlanadi.

Sodiqvoy xotinini shu darajada qizg'anaadiki, chang yo'q yerdan chang chiqaradi, sichqondan fil yasaydi. Oqibatda xotinini pichoqlab qo'yadiki, buni na haqiqat, na muhabbat, na insoniylik taqozo qiladi. Lekin undagi rashk o'z muhabbatini, vafodorlikni ko'z qorachig'iday himoya qilishga intilishlar paydo bo'lmaganmi? Axir, u xotinini ixtiyoriy ravishda so'yib tashlaydigan kallakesar emas- ku!

Yozuvchi uning qonxo'r emasligini e'tirof qiladi, lekin shunga qaramasdan Sodiqvoy xatti-harakatlari qandaydir maraz, qabixlik ramzi sifatida talqin etiladi. Biroq chuqurroq o'ylab qaralsa, vaziyat boshqacharoq ekanligi anglashiladi.

Anglashiladiki, uning xotini Xamida bir paytlar Akramga ko'ngil qo'ygan, ularning sevgi tarixi butun qishloqqa doston bo'lgan. Binobarin, Sodiqvoy xotining Akrm bilan munosabatida nihoyatda sezgirlik bilan qaramaydimi? Albatta sezgirlik bilan qaraydi. Zotan xotininn joniga qasd qilish xuddi shu Akram bilan bog'liq. Xamidaxon, Sodiqvoyning xotini "sobiq" sevgilisini uchrashuvga taklif etadi va ular qorong'i tushganda tegirmon bo'yidagi jiydazorda" – xilvatda uchrashishadi. Ular bir- birlariga yetishish uchun emas, Xamidaxon kolxoz raisi ustidan arz qiladi, Akramdan do'stining jilovini tortib qo'yishi, o'ziga yordam berishini so'raydi. Uchrashuv paytida qanday hayajonli, shirin damlar kechmaydi deysiz! Bir - biriga a'lo darajada tushunadigan yuraklarning bir maromda urishi, to'lqinlanishi boshqacha ma'noni anglatadimi?

Odil Yoqubov qahramonlar holatini umuman haqqoniy tasvirlaydi va buni mamnuniyat bilan qayd etish lozim. Ammo, u shunchaki begona odam bilan emas, balki ilk bor sevishgan Akram bilan xufiya uchrashgani uchun xotinini o'ldirishga jazm etgan Sodiqni butunlay qoralaydiki, bunga umuman qo'shilish mumkin.

Qisman o'sha er holatini tushunish, uning ahvoli oson emasligini ham e'tibordan soqit qilmaslik lozim.

Xo'sh, yozuvchi Sodiqvoy tarixini qalamga olish bilan nima demoqchi? U "qishloqi" rashk qilib haddidan oshib ketdi, oila, muhabbatni parchalab tashladi, demoqchi.

Ammo rashk bobida shaharliklar "qishloqi"lardan qolishmaydi. Buni qissaning o'zi, aniqrog'i, undagi Zafar obrazi tasdiqlaydi.

Sevgilisidan xavotirlanganda u shunday mulohaza yuritadi: "...sevgi, er-xotin o'rtasidagi munosabatlar erkin bo'lishi kerak, deb yurgan ziyolilardan biri men bo'lsam... Nilufar kinoga o'tgandan beri...tinchimni yo'qotdim. Xayolinga ming xil be'mani fikrlar keladi".

Odil Yoqubov rashk tarixini, rashkchilarga xos xususiyatlarni tahlil qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ymagan. U bu qahrmonlarning chinakam qiyofasini namoyon qilishni ko'zlagan. Akram xotini arazlab ketgandan keyin faqat oila, muhabbat haqidagina emas, balki ijtimoiy faoliyati, hayotdagi o'rni to'g'risida bosh qotiradi va bu boradagi nuqsonlarini izlay boshlaydi. Zotan qalbida soflik, samimiylilik, muhabbat tuyg'ulari mavj urib turgan odamgina kechmis-kechirmishlariga tanqidiy ko'z bilan qaray oladi, yetishmovchiliklari, qusurlarini topadi, ularga barham berishga muvaffaq bo'ladi. Shunga ko'ra Akramda eng yaxshi xususiyatlar qalqib chiqadi, ular haqiqat tazyiqi ostida har xil ikkilanishlar, lanjliklar, nohaqliklarga barham beradi. Chunonchi, me'morchilikda yo'l qo'ygan kamchiliklarini anglab oladi: "Bu muhtasham bino, aziz hamqishlog'imiz, talantli arxitektor, fan kandidati Akram Xoiloqov loyihasi asosida qurildi..." Akram ichida kulimsirab yana soyga do'ppi- do'ppi shaftoli o'g'irlab yurgan bog'ga, Hamida bilan ilk bor uchrashgan jiydazorga tikildi, lekin ko'nglidagi boyagi yorqin tuyg'ularni uyg'otishdan ojiz, o'g'ir o'yga toldi. Agar uch to'rt yil oldin, bosh plan ustida ishlayotganida tuppa – tuzuk ko'ringan san'at Saroyining loyihasi eskirganini endi o'zi ham sezgan bo'lsa, o'n yildan keyin odamlar nima deydi?

Yuz yildan keyin - chi? Yuz yil u yoqda tursin, yigirma - o'ttiz yildan keyin uning o'zi, o'zi tugul qizi Nodira ham boyagi yozuvni ko'rib otasidan nomus qilmasmikan?"

Yozuvchi qahramon ruhiyatidagi o'zgarish osonlik bilan ko'chmasligini juda yaxshi biladi. Shuning uchun Akramning shubhalanishlari, ikkilanishlarini sinchkovlik bilan kuzatib boradi. Uning qalbida nimaiki yuz bersa, barchasini ta'qib qilish payida bo'ladi, biroq asosiy maqsad haqiqatni yoritish ekanligini unutmaydi. Ayni choqda qahramon kechinmalarini turak tafti, qalb harorati bilan qalamga oladi.

Akramning mana bu roziga quloq soling: "Demak Akram uchun bitta - yu bitta yo'l qoldi, u ham bo'lsa ba'zi loyihalarimi qayta ishlab chiqish, eng muhimi, o'z e'tiqodlaridan voz kechib Zafarning haq ekaniga iqror bo'lish unig talantiga tan berish!

O'z e'tiqodlaridan voz kechish?

Inson uchun bundan ham mushkulroq daxshatliroq ish bo'lmasa kerak. Biroq hayot, haqiqat talab qilsa, voz kechish zarur. Aks holda taraqqiyot oqimi seni o'z yo'lidan uloqtirib tashlaydi, ko'pchilik e'tiboridan qolasan. Biroq chinakam haqiqat deb ardoqlagan, muqaddas deb himya qilgan fikring birdaniga sarob bo'lib chiqsa, buning o'ziga xos fojia ekanligini kim tushunmaydi?!

Qissa qahramoni xuddi shunday vaziyatga tushib qoladi: "U mehnatdan ba'zi loyihalarni qayta ko'rib chiqishdan qo'rqmas, lekin institutda ko'tariladigan shov - shuvni, mayd-chuyda gap- so'zlarni burchak -burchakda shivir - shivir qilishib, uyasiga cho'p suqilgan arilarday yugurishib qoladigan odamlarni ko'z oldiga keltirishi bilan o'y xayollari yana ag'dar - to'ntar bo'lib ketar edi".

Hamma gap mana shu "ag'dar to'ntarlar"da! Axir ularsiz ba'zan oqu qoranin, yaxshiyu- yomonning, haqligu nohaqlikning farqiga borish mumkinmi?!

Zotan o'sish - o'zgarish, taraqqiyot har xil alg'ov -dalg'ovlarni, ag'dar-to'ntarlarni taqozo qiladi. Lekin ular ikir-chikirlarning, mayda-chuyda ig'volarning emas prinsipial fikrlarning, kuchli e'tiqodlarning to'qnashuvi, kurashiga asos bo'lib, inson xarakterini yoritishga qaratilgan cho'g'da g'oyaviy-badiiy salmoq kasb etadi.

Akramning shaxsiy va ijtimoiy faoliyatidagi "alg'ov-dalg'ovlar", "ag'dar-to'ntarlar" xuddi shunday taassurot qoldiradi. Aniqrog'i uning oilasidagi "ag'dar-to'ntarlar" ijtimoiy faoliyatidagi o'zgarishlarga ulanib ketadi, biri ikinchisining sababchisi yoki oqibati bo'lib qoladi.

Qahramon xarakteridagi, aqlu irodasidagi o'zgarishlarning murakkabligi, hayotiyligi shu bilan belgilanadi. Diqqat qiling-a, Akram me'morchilikdagi tashqi yaltiroqlik, jimjimadorlikni kamchilik deb biladi, san'atning nazokat va nafosat qonuni talablariga rioya qilishni afzal deb biladi, ammo o'zining nohaqligini e'tirof etishga hadeganda bo'yni bermaydi!

Shu haqida o'ylaganda: "Akramning esiga bundan ikki yilcha o'qigan bir ingliz yozuvchisining maqolasi tushdi. Maqolada gap Turgenev bilan Tolstoy haqida borardi. Tolstoy adabiyotga endigina qadam qo'ygan paytlarida Turgenov shuhrati olamga taralgan mashhur yozuvchi bo'lgan. Lekin Tolstoy o'zining ilk sarlari bilaoq shunday obro' orttiradiki, Turgenevning shuhrati xuddi oftobda xiralashgan oyday xiralashib qoladi. Bu narsa Turgenevga qattiq botadi, ko'p iztirob chekadi, hatto Tolstoyning ba'zi asarlariga noto'g'ri baho beradi, ularni kamsitadi. Faqat bir necha yillardan keyingina Turgenev qalbidagi hasad va g'ayirlikni mardona yengib Tolstoyning ulug' talantiga tan beradi!..

Akramning esida bor - maqola unga juda qattiq ta'sir etgan edi. Mana hozir ham uni eslashi bilan ko'ngli yorishib:

"Odam ekanmiz-da! Turgenevday ulug' bir zot shunchalikka brogan bo'lsa... biz haliyam – dedi xayolida, dedi-yu yan a o'zidan kuldi – Turgenev qayoqda-yu, men qayoqda! Nima balo jinni bo'lib qolmadimmi ishqilib?"

Qahramonning san'atkor, ziyoli ekanini nazarga olsak, uning Tolstoy va Turgenev munosabatlaridagi "muzlik"ning "erish" tarixi bilan o'zining hayotini taqqoslashi tabiiy chiqqan.

Akram hayot "daryosi" qirg'og'idan chiqib ketdi, uning baxti, muhabbati xavf ostida qoldi, me'morchilikdagi mavqeiga tahdid solindi. Shuning uchun u doimo bezovtalanadi, osoyishtalikni bilmaydi, u yoqdan bu yoqqa yelib yuguradi, kunu tun o'ylanadi, izlanadi, ham oiladagi ham mehnatdagi, ijoddagi, me'morchilikdagi haqiqat uchun kurashadi.

"Larza"dagi Mutal, "Bir feleton qissasi"dagi Uchqun, "Muqaddas"dagi Sharif o'z maqsadi, o'z orzularini turmushga tadbiq etilishi uchun kurashmaydimi?

Kurashadi, lekin ularga nisbatan Akramning fikr doirasi, kurashchanlik, izlanuvchanlik, o'ylanuvchanlik darajasi ustun turadi. Zotan, "Qanot juft bo'ladi"ining qahramoni yangi davrning yangi xislatlarini - oltmishinchi yillar nafasini butun vujudi qalbiga jo qilib olgan. Shuning uchun uning quvonchiga ham, g'am -alamiga ham, qayg'u-g'ussasiga ham sherik bo'lsam deysiz.

Qissadagi deyarli barcha voqelar, personajlar bavosita yoki bevosita Akram bilan bo'g'lanadi.

Diqqat qiling-a, qissadagi Zafar va Nilufar, Ubayjon va Shohista, Sodiqvoy va Hamida, Turobjon va Malohat singari eru xotin, oshiq -mashuqlar hayotidagi majorolar, Sulton, Amaki, Shavkat kabi har xil xarakter, qiliqlar bilan ajralib turadigan personajlarning intilishlari xatti-harakatlaridagi "alg'ov-dalg'ovlar" Akram taqdiriga taqqoslanadi. Yo'q, shunchaki taqqoslab qo'yilmaydi. Asosiy maqsad Akram xarakterini chuqurroq yoritishdan iborat.

Odil Yoqubov faqat Akramni harakat qildirib qo'ymaydi. Qissa sahnasiga Zafar va Sultonni, kolxoz raisi Turobjonni, kinrejissor Shavkatni, jurnalist Ubayjonni olib chiqadi. Akramning ukasi Nortoji, birinchi muhabbati -Hamidaxon, uning eri Sodiqvoy, Ubayjonning sevgilisi Shohista uning dadasi Amaki,

Zafarning qallig'i Nilufar singari bir qancha shaxslar bosh qahramon hayotiga "ulab" qo'yilgan.

"Qnot juft bo'ladi" jo'n asar emas, u baxt, muhabbat haqiqat haqida fikrlar "jangi"ni keltirib chiqaradi, insonga ma'naviy zavq - shavq , ruhiy saboq baxsh etuvchi tuganmas manba - badiiylik dahosiga mehr tuyg'usini uyg'otadi, chinakam go'zallik, nafosat uchun kurashga chorlaydi. Bordi-yu ko'p so'zliligi, yuzakiligi, hayotdan yiroqligi bilan medaga tegib ketgan sirti yaltiroq, ichi qaltiroq asarlar ham ancha- muncha ekanligini eslasak, Odil Yoqubov qissasining salmog'i yanada ortadi.

"Qanot juft bo'ladi"ning mazmun, ma'no doirasi keng. U hayotda erkin parvoz qilish uchun ikki qanot - er-xotin oshiq -mashuqning totuv yashashi kifoya qiladi, degan naqldan iborat emas. Yozuvchi ijtimoiy o'zgarishlar insonning intim dunyosidagi, shaxsiyatidagi "ag'dar-to'ntar"lardan boshlanadi,jamiyat taraqqiyoti esa o'z navbatida insonning ma'naviy-ruhiy kamolatiga bog'liq, biri ikkinchisiz,ikkinchisi birinchisiz ravnaq topolmaydi, demoqchi bo'ladi,shaxsiy va ijtimoiy mafaatlari bir-birlari bilan jins bog'lanib ketganini, ularning "sof" holda yashashi, ravnaq topishi na jamiyat, na tabiat qonunlariga mos kelishini e'tibordan chetda qoldirmaydi. Lekin ko'p hollarda iqtisodiy va ma'naviy hayotdagi "alg'ov-dalg'ov"lar muayyyan shaxsga borib taqaladiki, bunga qissa qahramoni Akram bilan yaqindan tanishganingizdan keyin yana bir karra ishonch hosil qilishingiz mumkin.

Darvoqe, Akram nima uchun o'zining ma'naviy-axloqiy, ijodiy faoliyatiga tanqidiy ko'z bilan qarab, o'zining bir qancha hukm-xulosalaridan voz kechdi, turmushning tub masalalarini zamon talabi asosida yechish zarurligini uqdi. Axir, Sayyora bilan arazlashmasdan oldin o'z izlanishlari, xatti-harakatlari, mulohazalarini "taftish" qilsa bo'lmasmidi?! Yoki bundan ilgari o'zi haqida shaxsiy va ijtimoiy faoliyati haqida bosh qotirmasmidi?!

Inson tub mohiyati bilan ijodkor, izlanuvchan, o'ylanuvchan mavjudod bo'lgani uchun o'zini tarbiyalagan, kamolotga yetkazgan sharoitga, ittisodiy-siyosiy omillarga befarq bo'la olmaydi. Hamma gap insonning qadr- qimmatini, uning hayotini ezgu niyatlar, kommunistik e'tiqod asosida o'zgartirishga borib taqaladi. Lekin xarakter mantiqiga jindak zarar yetkazadigan ayrim detallar mavjudki, ular voqealar oqimiga, qahramonning o'y-fikrlariga mohirona singdirib yuborilmagan. Jumladan, Akram hadeb o'ziga dashnom beraveradi: "...o'z oilasida ko'satgan hunarlari-chi? Sayyoraga qilgan qo'polli-chi?" O'rinli o'rinsiz o'zining dag'alligi, qo'rsigidan shikoyat qiladi, shu uchun o'zini dam o'tga, dam suvga uradi. Axir, bir karra surilib-qoqilib ketsang, gohida bir umr to'g'ri yurmaganday bo'lib tuyulmaydimi?! Balki Akram shunday holatga tushgandir?!

Afsuski, bu narsa qorog'i. Lekin shuni aniqki, yozuvchi Akram qo'pol, dag'al demoqchi bo'ladi. Har holda, u qahramonga aybni ko'proq yuklaganday tuyuladi.

Bir qancha personajlar tilidan aytilgan mana bu fikrlar shunday xulosa chiqarishga asos beradi: "Shu ham odamgarchilik bo'ldimi?.. Sadqayi olimlik keting!" "men u kishi g'alati ekanini bilardimu, biroq bunchalik borishini ... Yana olim degan nomlari bor!", "Bu qanaqa pashtkashlik? Olim odam!"

Akram qanday dalillarga asoslanib qoralanyapti? Dalil esa - o'sha tarsaki. Boshqa hech qanaqa fakt yo'q. Ammo shu tarsaki deb uni butunlay odamgarchilikdan, insoniylikdan chetga chiqarib tashlash kerakmi?

Yaxshiyamki, yozuvchi bu fikrga qo'shilmaydi, aybning bir qismi xotiniga tegishli ekanini uqtiradi. Sayyora shunday mulohaza yuritadi: "U-chi? U yaxshi qildimi? Xuddi turmushga chiqmagan taniq qizchalarga o'xshamadimi? Erkalik ham evi bilan-da, axir?.."

Shu tariqa Akramning oilaviy mojaroda to'g'ri xulosaga kelganligi ko'rsatiladi. Ammo shunday bo'lsa nima uchun Akram xotiniga "...turmushimizni, seni ko'p o'yladim. Ko'p masalada nohaq ekanligimni tan

olaman” deb iltijo qiladi? Hatto ba’zan yalinib yolvoradi? Nima uchu o’zini hadeb yerga uradi?

Odil Yoqubov bu muammoni negadir nazarga ilmaydi. U Akramning birinchi bo’lib yon bergani ma’qul demoqchiday bo’ladi. Biroq bu borada iztirob chekish izlanishlar, shubhalanishlar ro’y bermaydimi! Aytaylik, me’morchilikdagi xatosini tan olish borasida Akram qanchalik qon bo’lib ezilib ketgandi! Xotini bilan yarashuv arafasida, yarashuv paytida uning boshidan qarama-qarshi xayollar kechmaydimi?! To’g’ri, bu haqda so’zlanadi, lekin dard, hayajon, harorat bilan yo’g’rilgan manzaralar kam yaratilgan. Hatto aytish mumkinki er-xotin o’rtasidagi kelishuv “bitim”i asardan tashqarida tuzilganga o’xshaydi.

Ayrim munaqqidlar qissa nihoysida voqealar keskin tus olmagani, qahramonlarning pirovardida og’iz-burun o’pishib ketishiga e’tiroz bildiradi. E’tirof etish kerakki, ularning davosida jon bor, ammo haqiqat qayerda?

Bu haqda biror xulosaga kelish uchun umuman badiiy asar xotimasi haqida mavjud bo’lgan ikki fikrga to’xtalib o’tish joizdir.

Bir guruh tanqidchilar va kitobxonlar asar “jang” bilan boshlanib “tinchlik” bilan tugasa, ya’ni dastlab “ag’dar-to’ntar” bo’ib pirovardida hamma narsa joy-joyiga tushsa, degan qarashni himoya qilishadi. Bunday qarash, ayniqsa, 50-yillarda avj olgan edi. Ammo o’z mavqeyini hozirda ham saqlab qolmoqda . Emishki, ijobiy qahramonlar salbiy kuchlar bilan olishuvda muvaffaqiyatsizlikka uchrasa, o’quvchilarga o’rnak bo’laolmaydi. “Ammo, - deb ta’kidlaydi I.Sultonov, - hayot boshqacharoq, ya’ni murakkabroq, tabiiyroq, bizning tasavvurimizga qaraganda. Shuni e’tibordan soqit qilish ijodiy muvaffaqiyatsizlikka olib keladi. Chunonchi, “Otello”ni eslang. Agar Otello rashk o’tida yonmasa, nohaqlik bilan kelishib ketsa, Dezdemonani o’ldirmagan bo’lur edi. Ammo hayot haqiqati, xarakter mantig’i Otelloning Dezdemonani o’ldirishini taqoza qiladiki, bunga Shekspir to’la rioya qilgan. Ammo “Otello”ni ko’rgan tomoshabinlar o’zlarini yoki jufti hallollarini o’ldirib qo’yayotgani yo’qku!” “Otello”ku o’tmishga oid ekan,

ammo “Yosh gvardiya” (A.Fadeev), “Optimistik tragediya” (V.Vishnevskiy). “Shavqatsizlik” (P.Nilin), “Qutlug’ qon” (Oybek) kabi asarlar xotimasi fojia bilan yakunlanganini inobatga olmaslik mumkinmi?

Boshqa bir guruh munaqqidlar va o’quvchilar asarni, g’alabalar,to’ylar, yarashuvlar bilan emas, faqat fojia, “ag’dar-to’ntar” bilan yakunlash zarur deyishga jur’at etmoqda. Hatto, Ch. Aytmatovning “Oq kemasi”dagi xotimani namuna tarzida ko’rsatib, yozuvchilarimizni shundan o’rganishga, o’rnak olishga da’vat etmoqda.

Asarning yakuniga nazar tashlaylik. Avvalo shuki, Akramning “ag’dar-to’ntar”da aybning ko’p qismini o’z gardaniga olib birinchi bo’lib “taslimnoma”ga imzo chekishi ishonarli chiqqan. Lekin Sayyora-chi? Aybni bo’yniga olishga bo’yni yor berdimi? Axir, u egilga boshni qilich kesmaydi deb oldiga uzr so’rab kelgan eridan baland kelmaganmidi? Umuman Sayyora xarakteri qay darajada haqqoniy yoritilgan va u orqali yozuvchi qanday g’oyani targ’ib etmoqchi?

“Mening nazarimda,- deb yozadi Umarali Normatov, - Sayyora asardagi asosiy figura, qissadagi asosiy majorolar, bahslar shu obraz tevaragida boradi, kitobxon uning xatti- harakatlarini qiziqish bilan kuzatadi”.

Bu haqiqatdan ancha uzoqroq. Negaki, yozuvchi axloqiy muammolar - muhabbat, oila, sadoqatnigina emas, balki ijtimoiy masalalarni,chunonchi, me’morchilik san’ati, qishloq madaniyati, ijodkorning o’z iste’dodi, o’z xalqi, el-yurti oldidagi masuliyatiga oid jumboqlarni ko’tarib chiqadi va ularni tadqiq etishda asosiy vosita qilib Akramni (Sayyorani emas) oladi.

Tanqidchi Umarali Normatov quyidagilarni ta’kidlaydi: “Sayyora umuman yaxshi ayol, lekin u tutqunlikka sho’xlik qabilida ish tutadi, ko’ngliga ortiqcha erk berib yuboradi, yoshiga yarashmagan qiliqlar chiqaradi, yangilik shiori ostida betayin tushunchalar, havoyi orzular qanotida “yuksaklikka” parvoz qilmoqchi bo’ladi, bir guruh tantiq, bemaslak yoshlar davrasiga qo’shilib, o’zining oila, el-

yurt oldidagi ma'suliyatini unutadi, oilaviy-shaxsiy baxtini, ayyollik shanini xavf ostida qoldiradi”.

Bundan chiqdiki, Sayyora salbiy obraz ekanda degan fikrga borish mumkin. Yo'q, Odil Yoqubov unga boshqacharoq munosabatda bo'ladi, qahramondagi ayollik nazokati, insoniy go'zalligi, sofligi, sadoqatini mehr bilan tasvirlaydi, ayni choqda xarakteridagi qarama-qarshiliklar, ayrim qusurlarni xas-po'shlab ketmaydi, me'yoridan chiqib ketgan “erkaligi”, “sho'xligi”ni afsuslanib, achinib qayd etadi.

Sayyora an'anaviy ma'nodagi ayolar obrizidan jiddiy farqlanadi. Jumladan, Jamila, Gulnor, Kumushushbib, Saida, Bahorlarga ayrim xislatlarigina o'xshab ketadi, xolos. Lekin nimasi bilan? Sof tuyg'ular, noyob hislar to'lqini mavjlanib turgan qalbi bilan. Qabihlikka, nohaqlikka, murosasizligi bilan. Insoniy shukhi.bokiraligi bilan. Biroq Sayyora o'zining yigirmanchi, o'ttizinchi, hatto elliginchi yillarda yashab, baxt-saodat, hqiqat uchun kurashgan dugonalaridan o'ziga xos “qiliqlar”i bilan ajralib turadi.

Avvalo shuki, Sayyora o'zini erkin tutadi, gohida (diqqat qiling: har doim emas gohida !) eri bilan hisoblashmaydi, o'ziga o'zi mahliyo bo'lib qoladi, mustaqil harakat qilaman deb goho axloq doirasidan chetga chiqib ketadi.Chunonchi ba'zan o'yin kulgini me'yoridan oshirib yuboradi, kafe, restoranlarga mehr qo'yadi, “zamonaviy” raqslar, jazga qiziqadi. Yana shunisi borki, bunaqa paytlarda eri bilan emas, balki yolg'iz o'zi, hatto begonalar bilan yurishga ju'rat etadi.Lekin milliy an'analarni, oldagi burchini unutib qo'yadimi? Hamma vaqt erini pisand qilmasdan “Yoshlik”kafesida ayshini suradimi?

“Qanot juft bo'ladi” javob beradi: yo'q also bunday emas! Qahramonning o'zi ham o'zini butunlay begunoh qilib ko'rsatmaydi.U eriga pinhona murojlat qilib shunday deydi: “Yoshgina xotinini hammaga kulgi qilib yolg'iz tashlab ketadimi? Undan ko'ra sudrab olib chiqib ketgani yaxshi emasmidi?”

Ko'rinyaptiki, qahramonlar ancha murakkab muhitga, ancha murakkab vaziyatga tushib qolgan va bu yerda bironing mutlaqo begunoh yoxud mutlaqo

aybdor ekanligini aniqlash mushkul. Pirovardida ham Akram, ham Sayyora tarsaki “tarixida” aybdor degan xulosa kelib chiqadi. Yozuvchining o’zi esa nima uchundir Sayyoraga aksari hollarda gard yuqtirmaslik payida bo’ladi.

Sayyoraning mana bu gaplariga e’tibor qarataylik: “U kishining hali direktor bo’ladigan qobiliyatlari bor ekanmi? - deb piching qildi”.

Gap dissertatsiyani “arang yoqlagan”, atigi “ustaxonaga boshliq bo’lgan” Akram haqida jufti haloli haqida ketayotir. Yana shunga diqqat qilingki, bu gap Akramning sevgan xotiniga tegishli.

Sayyora erining yuksak lavozimni egallamagani uchun ahyon ahyonda mung’ayib pushaymon yeb yoki g’ijinib gapirishiga xayrixoh bo’lish qiyin.

Asarda ta’kidlanadiki, Sayyoraning fikr doirasi keng. Shunday bo’lgach u har xil hodisalar haqida o’ylanmasinmi? Obro’li, iste’dodli erni orzu qiladi. Akramning shu darajaga yetolmagani uchun qiynaladi, iztirob chekadi. Hatto shon - shuhrat cho’qqisini egallagan odamga ko’ngil qo’yishdan cho’chimaydi, shu haqda bosh qotiradi, orzu qiladi, lekin orzulari, o’ylarini amalga oshirish uchun kurashmaydi. U har qanday sharoitda ham Akramga bo’lgan muhabbati, oilasi, qizi oldidagi ma’suliyatni, burchni esdan chiqarmaydi. Shunday bo’lgach, Sayyorani “yengiltak”likda ayblash mumkinmi? Axir, u o’zini jarlikka qulashdan asrab qoldi - ku! Axir, eriga, qiziga, oilasiga xiyonat qilmadi - ku?!

Mana shu xususiyatlari bilan Sayyora Kumushbibi, Gulnor, Jamila, Saidalardan ajralib turadi. Shu xususiyatlari bilan menga u original, yangi obraz bo’lib gavdalanayapti.

“Qanot juft bo’ladi”ning xotimasini nazarda tutib, Sayyoraning oilasiga qaytib kelishini sharxlab, Umarali Normatov quyidagilarni ta’kidlaydi: “...biroq oqibat -natija kutilgan darajaga borib yetmaydi, asar qahramoni (ya’ni, Sayyora) go’yo o’sha xatarli yo’lda dovanning cho’qisiga ko’tarilmay turib orqaga qaytadi, yozuvchi munosabati birdan o’zgaradi, vaziyatni yumshatish, qahramonni qayta

tarbiyalash, er-xotinni kelishtirish bilan band bo'lib ketadi, natijada obrazning binobarin, butun asarning ta'sir kuchi susayadi..."

Asarning qanday boshlanishi, undagi voqealarning rivojlanishi, xotimaning mazmunini hayot belgilaydi, xarakter mantigi aniqlaydi. Axir vaziyatni yumshatishga, qahramonni qayta tarbiyalashga, er-xotinni kelishtirishga obektiv va subektiv sabablar, turmushning o'zi davat qilsa, bunga qarshilik ko'rsatishdan ne foyda? Binobarin, hamma gap qahramon xarakterining mantig'i va uning hayotiy asosida.

Sayyora xarakterida hayotga bir yoqlama qarash bilan birga shaxsiy va ijtimoiy muammolarni yechishda yetti o'lchab bir kesishga intilish mavjud.

Odil Yoqubov sayyoraning axyon-axyonda davron surish, yallo qilib yurish jonni og'ritmasdan o'ziga rohat baxsh etishga intilishni qayd etadi. Axir qahramonning kinoaktrisa bo'lish, shuhrat qozonish yo'liga o'tishi bejiz emas! Ammo qahramonni san'atkorlar davrasiga qo'shilishi har tomonlama puxta, chuqur asoslangan deyish qiyin.

Akramning o'sha qishloqda tug'ilib o'sgani, ota-onalarinikiga, maktabdosh do'sti, keyinchalik raislik lavozimiga ko'tarilgan Turobjonlarnikiga tez-tez borib turishi, o'sha yerdagi klub loyihasini yaratishi, loyiha asosida bino qad ko'targani ishonarli tasvirlanadi. Sayyoraning bir "yumalab" kinoaktrisa bo'lib qolishi-chi?

Bir jihatdan uning san'atkorlarga qo'shilishi shubha uyg'otmaydi. Negaki, eri memor, san'atkor va u bu sohaga befarq qaramaydi, deb hisoblash mumkin. Bundan tashqari, dugonalari, do'stlarining aksari kinochilar bilan bevosita yoki bivosita aloqada bo'ladi. Ammo shularning o'zi Sayyorani ekranda obraz yaratishga davat etadimi? Shularning o'zi bir sohani tashlab, ikkinchisiga o'tishini taqozo qiladimi?

Qissadan anglashiladiki, Sayyorada bu xil iste'dod yo'q, u oilaviy majoro oqibatida kinochilar bilan oshno bo'lib qoladi. Ammo uning filmda bosh qahramon obrazini olib chiqishi uchun bundan ham muhimroq, qimmatliroq, salmoqliroq

asos bo'lishi lozim edi. Yoki Sayyora ayrim go'zal qizlar singari aktrisa bo'lishni yoshlikdan orzu qilarmidi?

Asardagi badiiy to'qimalar real hayotning o'ziday tabiiy va haqqoniy bo'lib gavdalanadi, biroq bu faqat er-xotin munosabatlari, intim hayot tasviridagina ko'rinadimi?

“Qars ikki qo'ldan chiqadi... -deydi Sayyoraga dadasi, - u hozir juda ezilib yuribdi. Shunday paytda... insoniy ma'suliyat, burch, adolat degan gap bor. Qanot juft bo'ladi, bitta qanot bilan qush parvoz qila olmaydi, qizim. Kim bilsin, sen hozir do'stlik qo'lini cho'zsang, qiynalganda suyasang, yordam bersang, balki uham qaddini tutib olar. Institutda ham ishlarining mazasi yo'qqa o'xshaydi”.

Bundan chiqdiki, er-xotin bir -birisiz yashay olmaydi degan fikrni ifodalash uchun yozilgan ekan-da? Yo'q, Odil Yoqubov oilaviy burch, ma'suliyat, adolat, muhabbatdagi soflik, sadoqat, qalbdagi noyob va nodir tuyg'ular pirovardida ijtimoiy taraqqiyotni harakat keltiruvchi omillar bo'lib hisoblanadi, aksincha, jamiyatning ma'naviy- iqtisodiy asosi qay darajada mustahkam bo'lsa, o'ssa, ravnaq topsa, shaxsiy faoliyati, sevgining chinakam baxt- saodatga, yorqin turmushga olib kelishi shu darajada tezlashadi, shu darajada yuksak maqsadni amalga oshirish uchun imkon yaratiladi, degan fikrni himoya qiladi, xuddi shu fikrni qahramonlar faoliyatiga singdirishga intiladi. Bu sevgi tarixi, oilaviy “jang”lar tasviridagina emas, balki Sayyoraning kinochilar bilan, Akramning me'morlar va kolxoz raisi bilan to'qnashuvida ham namoyon bo'ladi.

Mana shu to'qnashuvlar “Qanot juft bo'ladi”ning salmog'ini oshirgan, unda ijtimoiy ohangning balandroq jaranglashini ta'minlagan, ayni choqda yorqin qiyofadagi xarakterlarni namoyon qilgan. Kinorejissor Shavkatjon, me'mor Sulton va kolxoz raisi Turobjon shular jumlasidandir. Lekin shunisi xarakterliki, uchala shaxs ham ikkinchi darajali qahramonlar, ammo ularsiz “Qanot juft bo'ladi”ni to'laqonli asar deb bo'lmaydi.

Odil Yoqubov talqinida Shavkat shunchaki axloqsiz, yengiltabiatli yigit sifatidagina emas, balki shaxsiy hayotdagi betayinligi, buzuqligini san'atga - ijtimoiy faoliyatga ko'chirgan yuzi yaltiroq, ichi chirkin, manfur shaxs tarzida gavdalanadi. Axir o'zini nihoyatda madaniyatli, iste'dodli san'atkorgina emas, balki ajoyib qalb egasi qolib ko'rsatishga zo'r berib uringan, shu tufayli Sayyorani yo'ldan urmoqchi bo'lgan odam shu Shavkat emasmi?! Axir shu niyatini amalga oshirish uchun filmdagi fojiani oddiy baxtsizlik, omadsizlik deb ishontirmoqchi bo'lgan, aysh-ishrat surish maqsadida haqiqatga, san'atga xiyonat qilgan rejissor shu Shavkat emasmi?!

Qanday ta'sirchan, hayotiy obraz!

Shavkatning badiiy tip tarzida o'zini namoyish qilishi uchun yozuvchi unga har xil marazlarni "yopishtirvermaydi". Uning muayyan fazilatlarga begona emasligi, shart-sharoitning murakkabligiga qarab ish tutuvchi, paytida murosa qiluvchi, paytida hujumga o'tuvchi ayyor, yashovchan, izlanuvchan ekanligi ta'kidlanadi. Lekin ta'kid qanchalik aniq, yorqin, haqqoniy bo'lmasin, baribir badiiy tahlil emas!

Shu jihatdan Turobjon obraziga nazar yashlar tashlar ekanmiz, uning xarakterida kolxoz rahbariga oid murakkab mulohazalar, qarama-qarshi tuyg'ular mujassamlashtirilganini ko'ramiz; uning faoliyati, xatti-harakatlari qalamga olingan epizodlarni ko'zdan kechirar ekanmiz, goho ko'pchilik manfaati uchun o'zini ayamaydiga barcha kuch - qudrati, imkoniyatlarini fido qiladigan, goho qiyin sharoitlarda ham o'ziga kir yuqtirmaydigan, suvdan qurq chiqadigan kolxoz raisi gavdalanadi. Ba'zan shu xususiyatlari bilan "Sinchalak"dagi Qalandarovni, biroq u Abdulla Qahhor qahramonidan ko'chirilgan nusxa emas. Odil Yoqubov "qalandarov"chilikning bizning zamonimizdagi yangi xususiyatlarini ko'ra bilgan va original tip yaratishga intilgan fikrimizni oydinlashtirish uchun mana bu so'zlarning mag'zini chaqib ko'raylik: "Biz ..pravleniye deganda Turobjon Ikromov deb bilamiz".

Kim bunday deyapti? Javob beramiz: Turobjon Ikromovning o'zi! Nahotki "Qanot juft bo'ladi"dagi rais shu zaylda fikr yuritayapti?

Turobjon ham Qalandarov singari dehqonchilik ilmini miridan sirigacha biladi, yerning tiliga tushunadi, bir qancha hollarda o'zboshimchalik bilan ish tutadi, hech kimning fikri bilan hisoblashmaydi. Mansabini xuddi "Sinchalak" qahramoni singari chin qalbdan sevadi, unga gard yuqtirmaslik g'omini yeydi, hatto shu maqsadda yolg'on yashiqqa ko'z bo'yamachilikka yo'l qo'yadi. Lekin asl mohiyati bilan Turobjon Qalandarovdan ajralib turadi, faqat ism-familiyasi bilangina emas,. Turobjonda Qalandarovdagi o'jarlik bilib bilmasdan o'zini o'tga , suvga urish odati yo'q. Uzoqni ko'rishga, har bir voqeaga ilm ko'zi bilan qarashga qodir. Uning bu so'zlariga diqqat qiling: " Sizning nima maqsadda kelganingizni bilib turibman, uka. Ammo lekin kolxoz hayoti bilan tanishmay, faqat o'sh masala bilan cheklanib qolsangiz ... yozgan narsangizda qora bo'yoqlar ko'payib ketmasmikin? G'oyaviy jihatdan to'g'ri chiqarmikin yozgan maqolangiz?"

Bu raisning uni tanqid qilmoqchi bo'lgan jurnalistga javobi. Qarang-a, "qora bo'yoqlar", "g'oyaviylik" haqida mulohaza yuritayapti! Qalandarov bunday mulohaza yuritaolmasdi. "Yaxshi", "yomon"ni bilardi-yu, ammo masalaning mohiyatini har jihatdan chuqur anglashga qodir emasdi. Turobjon bu borada undan ancha o'zib,ilgarilab ketgan!

Odil Yoqubov raisning goho o'z masabini suistemol qilishini ham, goho sidqidildan, chi yurakdan vazifasini ado etishini ham ko'rsatishga harakat qiladi va bu harakat bir qancha hollarda zoya ketmaydi. Eng muhimi, Turobjon faoliyati, xatti-harakatlari, izlanish-intilishlari Akram uchun misli bir ko'zguday uning fazilatlarini ham, ayrim kamchiliklarini ham go'yo yangicha shaoritda, yangicha shaklda namoyish qilib turganday tuyuladi. Shavkatning haqiqat tantanasi uchun kurashishi o'rniga maishatga berilib ketishi , Ubayning o'z e'tiqodiga ko'ra har xil marazlarga murosasiz bo'lishi. Sultonning mansab yo'lida har qanday muqaddas tuyg'uni bulg'ashi- barcha-barchasi Akram xarakterini chuqur yoritishga qaratilgan.Sayyora, Hamida, Shohista kabi obrazlar haqida ham xuudi shunday

deyish lozim. Biroq ulardan ayrimlari o'z qiyofalarini, duyoqarashlarini keng ko'lamda namoyon qila olmay qolgan. Oqibatda "Qanot juft bo'ladi"ning adabiyotimizda, yozuvchi ijodida katta voqea bo'ladigan chinakam kashfiyot drajasiga ko'tarilishiga birmuncha putur yetgan. Lekin asarda turmush murakkabliklari, ziddiyatlarini yoritish orqali haqiqat tantanasi, kommunistik e'tiqod uchun mehnat qilishga, kurashga da'vat etuvchi hayotiy g'oya mavj urib turganini inkor etib bo'lmaydi.

To'g'ri, bu g'oyaning mundarija mazmuni yanada kuchli, baquvvat, barkamol bo'lishi uchun mavjud imkoniyatlardan yetarli foydalanilgan emas. Yozuvchi bilan goh baxslashib, goh xayrihoh bo'lib, goh unga qarshi chiqib, hayotiy fikrlar olamiga xayolan parvoz etasi, parvoz muvaffaqiyatini esa iste'dod ta'minlaganiga ishonch hosil qilasiz.

«Qanot juft bo'ladi»ni yetuk ijodkor yaratgani sezilib turadi: voqealarni shunchaki bayon etish emas, balki badiiy tahlil qilishga intilish kuchli. Eng muhimi zamondoshlarimiz faoliyatini yoritish orqali realistik tiplarni gavdalantirish, tasviri xarakterlarning yangi qirralarini ochish tendensiyasi ko'zga yaqqol tashlanadi.

2.2. "Billur qandillar" qissasida muhabbat mavzusi tasviri.

Badiiy yetuklik namunalari shunda ko'rinadiki, Odil Yoqubov qahramonlar intim duyosining tahliliga ijtimoiy mazmunni singdirib yuboradi. Shuning uchun Sayyora bilan Akram o'rtasidagi oilaviy majoralar faqat bu ikki shaxsgagina emas, balki endi turmush qurgan ko'chilik yoshlarga taaluqli ekanligi oshkor etiladi. Yana shunisi diqqatga sazovorki, - bugun ham, kelaajakda ham muhim ahamiyat kasb etadigan masalalar ko'tariladi. Jumladan, oila qurilgandan keyin undan so'ng ham sevgi, baxt barqarorligi uchun kurashish kerak, me'morchilik, arxitektura ham o'ziga xos san'at bo'lib, bu sohadagi muvaffaqiyatlarga noyob iste'dod ishga safarbar etish orqali erishiladi, aks holda ko'ngilsiz natijalar kelib chiqadi, degan mulohazalar doimo dolzarbligini saqlab qoladi. Tor doiradagi ikir-chikirlar, mayda-chuyda muammolar emas, balki

mehnatkash xalqimizning hayotini kommunistik e'tiqod asosida qayta qurish, o'zgartirish va shu yo'l bilan baxtli kelajak zaminini hozirlash bilan bog'liq muammolar "Billur qandillar" qissasida ham qalamga olinadi.

Ma'lumki asar tez mudattda yozildi, lekin u zavq-shavq bilan o'qiladi, kishini o'ziga rom qilib oladi.

Buning sabablarini chuqurroq anglash niyatida dastlab rus adibi Evg. Bogatning "Saboq" deb nomlangan ocherkida tasvirlangan mana shu vaziyatni eslaylik: besh-olti qiz o'z tengdoshi dugonasini kaltaklayapti, bor kuch quvvati bilan yaxshiyona kaltaklayapti. Biri mushtlayapti, ikkinchisi tepkilayapti, uchinchisi duch kelgan joyiga ushiryapti. To'rtinchisi... Xullas, barchasi bir qizga tashlanib, uni ezib, majaqlab tashlayapti. O'lasini qilib do'pposlangan qiz kasalxonaga keltiriladi, lekin u nima uchun bu jazoga giriftor bo'ldi? Aniqlanishicha dugonalaridan biri to'g'risida unday deganmish, ikkinchisini bunday deb chaqimchilik qilganmish, xolos.

Aybdorlar, bir jonga qasd qilganlar jinoiy javobgarlikka tortiladi, jazosini oladi, biroq bu yerda yigitlarmas, balki qiz bolalar yaxshilik qildi? Axir ular nazokatu latofat ramzi emasmi?

Ocherk muallifi Evg. Bogat yana bir faktga diqqatimizni jalb etadi: besh-olti qiz bittasini majaqlayapti-yu, buni yigirma yigitcha "tomosha" qiladi, ulardan bir qanchasi qizni qanday qilib do'pposlash to'g'risida "ko'rsatma" berib turadi, ammo birontasi yaxshilikka chek qo'yilsin, deb jafoda chekayotganga yordam qo'lini cho'zmaydi, Diqqat qiling: kimki qizni jarohatlashda ishtirok etsa sudlanadi, biroq yigirma "tomoshabin" qonun moddasiga ko'ra jazolanishi mumkin emas. Shunga qaramasdan ular qahramon sifatida tadirilanmaydi, jamoatchilikning g'azab va nafratiga uchraydi. Chumki, ma'naviy qashshoqlik hech qachon mehr- muhabbat qozona olmaydi. Dugonasini o'lasini holatga keltrganlar ham, ularning qabih ishini "mazza" qilib ko'rganlar ham har xil sabablarga ko'ra mudxishlikka qadam qo'yganlar, pirovardida shunisi

anglashiladiki, ma'naviy qashshoqlik deb atalgan dahshatli "kasallik" dan hammasiga "yuqqan", hammasi shu "kasallik" dan o'z "ulush"ini olgan. Lekin bu "ulush"ning miqdor-mundarijasi qanday, u qachon, qanday sharoitda fojiaga olib boradi, umuman ma'naviy qashshoqlikning paydo bo'lish manbalari, sabab-shartlari nimalardan iborat, bu "kasallik" o'zini qanday shakl- ko'rinishlarda namoyon qiladi - bularni aniqlash ancha mushkul. Negaki, o'sh illatga giriftor bo'lganlar albatta birovning joniga qasd qiladi, ikkinchisiga changal soladi, uchinchisini mazax etadi, deb bo'lmaydi. Ma'naviy qashshoqlik hayotidag marazlar singari turli xil qiyofada paydo bo'ladi.

"Billur qandillar" qissasidagi voqealar ma'naviy qashshoqlikka aloqador emasday tuyuladi. Asar syujeti unchalik murakkab emas. Unda "Saboq" ocherkidagidek fojiaviy holatlar ham yo'q darajada. To'g'ri, "Billur qandillar"dagi Begimqul xotini Nilufarga changal soladi, jarohatlaydi, lekin tana jarohatidan qalb jarohati dahshatliroqdir. Ma'naviy qashshoqlik esa yuraklarga o'q bo'lib otiladi, dillarni pora-pora qiladi, g'am-alamlar to'lqinini hosil qiladi. Odil Yoqubov masalaning shu jihatiga alohida e'tibor beradi.

Xo'sh, qanday g'am-alamlar haqida so'zlanadi "Billur qandillar" qissasida?

Bir qarashda savolga jo'ngina javob berish juda osonday tuyuladi: Nilufar Hikmatillo degan yigit bilan sevishtay bo'ladi, hatto o'pich ham hadya etadi, ammo undan aynib Begimqul degan Hikmatilloning o'rtog'ini er qiladi, so'ngra yanglishganini anglaydi-da, ilk muhabbatini qo'rsaganday bo'ladi. Qissaning mazmunini shu tariqa so'zlab berib, mazkur jumboqni yechish mumkinga o'xshab ko'rinadi. Aslida asar mohiyati faqat er-xotinning bir-biridan ajralishi va shu munosabat bilan tug'iladigan tuyg'ular oqiminigina qamrab olmaydi. Aniqrog'i, yozuvchi oilaviy majorolar negizida muhim ijtimoiy muammolarni ko'tarib chiqadi hamda hayotiy, haqqoniy obrazlar orqali yoritishga intiladi, bu intilish esa ko'p o'rinlarda samarali yakunlanadi.

Gap insonning ma'naviy yetukligi, ruhiy barkamolligi haqida ketayotir. Odil Yoqubov insoniy samimiylig, beg'uborlik, soflik yuksak darajadagi madaniyat, ilm bilan "payvand"lasa, baxt-saodat, adolat va haqiqat tantanasi uchun, odamning har jihatdan ulug'vor bo'lishi uchun qulay shart-sharoit, muhit yaratiladi, degan fikrni himoya qiladi. Eng muhimi, shu fikr qahramon xarakteri va hayot haqiqati zamiridagi barcha ziddiyatlari va murakkabliklari bilan monand holda olib yoritiladi. Shuning uchunmi, "Billur qandillar" syujetini harakatga keltiruvchi Hikmatillo, Nilufar va Begimqulni an'anaviy qahramonlar sirasiga kiritib bo'lmaydi. Ularning ijobiy xususiyatlari, fazilatlar, oshirib-toshirib ko'rsatilmaydi, har bir xarakterga mos takrorlanmas ma'naviy ruhiy olamning ijtimoiy taraqqiyotga bog'liq jihatlari yozuvchining diqqat markazida turadi. Ayniqsa, Hikmatillo obrazi keng ko'lamda tasvirlanadi. U bilan biz dunyoning ko'pgina tashvishlarini boshimizdan kechiramiz, turmushning achchiq-chuchuklarini, shirin, lazzeatli, qayg'uli damlarini baham ko'rgandek bo'lamiz. Lekin Hikmatillo doimo o'sib boruvchi, o'zgaruvchi dinamik xarakter tarzida gavdalanadi, ba'zan uni qo'llab quvvatlagi kelsa, ba'zan u bilan baxslashgi, unga e'tiroz bildirgi keladi. Hikmatillo gohida yanglashadi, tajribasizlik qilib nuqsonlarga yo'l qo'yadi, ma'naviy-ruhiy barkamollikka erishishda ancha qiyinchiliklarni boshidan kechiradi, biroq Odil Yoqubov uni musaffo qalbli, samimiy inson sifatida gavdalantiradi. Qurilish texnikumida tahsil olayotganda Nilufar bilan tanishadi, dastlab ular bir-birlariga satoydil talpinishadi, bir-birga mehr qo'yishadi. Afsuski, ko'p o'tmay Nilufar Hikmatilloning qadriga yetaolmay qoladi, aniqrog'i qiz yigitda uddaburonlik, ishbilarmonlik xususiyatlarini topaolmaydi, ayol ko'nglini har xil yo'llar bilan ovlashga uquvi yetishmasligi anglaydi, yaxshi yashash uchun iqtisodiy zamin yaratishga qurbi yetmasligini ko'radi. Xullas, Hikmatillo Nilufar orzu qilgan yordan ancha uzoq ediki, ularning oralig'iga sovuqlik tushadi, butunlay ajralishib ketadi.

Hikmatillo Nilufarning xato qilayotganligini sezib turadi, biroq chuqur anglab yetmaydi, qizni yengiltaklikda ayblaydi, qo'lni yuvib qo'ltiqqa uradi. Shuning uchun biz uni bir jihatdan ayblashimiz mumkin, lekin ikkinchi tomondan yigit

boshqacha yo'lni tuta olmas edi, deyishga majburmiz. Hikmatillo Begimqulning g'irromligini yaxshi biladi, Nilufarga shuni tushuntirib ko'zini ochishga urinmaydi. Ayni choqda shuni ta'kidlashimiz zarurki, Hikmatillo Begimqulni qancha yomanlasin, qiz baribir unga ishonmasdi. Negaki, u Begimqulda Hikmatillodan topilmagan fazilatlarni kashf etganday bo'ladi va Hikmatillo alamidan shunday qilyapti deb o'ylardi.

Muayyan vaqt o'tishi bilan Nilufar shuni anglaydiki, u insoniylikni "billur qandillar"ga qurbon qilgan, zebu-ziynatni, molu - dunyoni baxtiyorlik omli deb bilgan: Begimqulning mardligiga, saxiyligiga, sovchilar kelgan bu oq "Volga"larga oyisidan avval uning o'zi uchmaganmidi? To'ydan bir hafta oldin Begimqul Nilufarni shu uyga boshlab kelganida va u jihozga to'la bu xonalarni, yerdagi qip-qizil gilamlar, hali g'ilofdan chiqarilmagan anavi servantlar, muzlatgichlar, to'rda turgan televizorlarni ko'rganida yosh boladay sevinib, qimmatbaho buyumlarni qo'llari bilan silab-siypab ko'rmaganmidi?... – Hammasi yaxshi-yu, faqat qandilingiz yarashmayapti! – deb kulgan edi". So'ngra Nilufar billur qandillarga ham ega bo'ladi, biroq billurday tiniq, sof ko'ngillar bir-birlaridan oziqlansagina, baxt-saodat tantana qilishini kechroq tushunadi. Lekin tushunishi ham katta gap! Aslida tushunishi mumkin emas edi. Negaki, Nilufar qalbidagi pok, samimiy tuyg'ular yashirilib yotgan edi. Hikmatillo bilan bir yildan keyin uchrashganida mana shu tuyg'ular qaytadan uyg'onadi, jumbushga keladi. Bordi-yu, Hikmatillo bilan uchrashmaganida hamma narsa joy-joyida qolib, Nilufarda o'zgarish bo'lmasmidi, deb qolishingiz mumkin, biroq yozuvchi shunga shama qiladiki, bu voqea shunchaki tashqi sabab, bir turtki, bahona xolos, aslida hayot oqimi tabiiy suratda qizning Begimqul bilan baxtli bo'laolmasligini ko'satadi. Chunki, Nilufarning ma'naviy dunyosi erinikiga also mos kelmaydi, biri olov bo'lsa, ikkinchisi suv, biri kun bo'lsa, ikkinchisi tun, biri pastda tursa, ikkinchisi balandda yashaydi, ammo buni na Nilufar, na Begimqul o'z vaqtida anglab olgan. Begimqul esa umuman xotinidan ancha tuban turishini hech qachon tushunmasa kerak: " Bu xotinning turmushdan norozi bo'ladigan nima kamchiligi bor? Nima yetmaydi o'zi? Yegani oldida, yemagani ketida! Kiygani atlasu ipak! Hech narsadan kam-

ko'sti yo'q! Nima tilasa - hammasi muhayyo! Qishloqda u tengi qiz-kelinchaklar qo'llari kasov, sochlari supurgi, qishin-yozin tinim bilishmaydi! Qishloqni aytadi, shu yerlik, shaharlik yoru birodarlarining turish-turmushini ham biladi-ku, Begimqul. Hammasiyam unga, xotinlari Nilufarga havas qilishadi! Bu esa arshi a'loda yashaganday yashaydi-yu, sira chehrasi ochilmaydi. Na unga - Begimqulga kulib boqadi, na o'zi o'ynab-kuladi, so'kib ham ko'rdi - bo'lmadi. Alamidan ichib kelib to'polon ham qildi - foyda bermadi. Kecha-yu kunduz bir nimalarni o'ylagani o'ylagan, qovog'i solingani solingan".

Nilufardagi ilk bor uyg'ongan pok, samimiy va go'zal tuyg'ular billur qandillarning nurida yo'qolib ketganday tuyuladi, Begimqul esa hamma narsani, shu jumladan muhabbatni ham o'sha qimmatbaho boylik bilan o'lchaydi, oqibatda Nilufarning qalbiga yo'l topaolmaydi, lekin o'sha qandillar bilan Nilufarning ko'zini qamashtirdi, o'ziga og'dirdi, asir qildi, xolos.

Yozuvchi bu uchun Begimqulning o'zinigina qoralamaydi. Chunki, raygazda master bo'lib davron surayotgan bu yigit billur qandillar yog'dusida tug'ilgan emas, ya'ni molu mulkka mukasidan ketish unga ona suti bilan kirmagan kirishi mumkin emas. Negaki, qanday bo'lishidan qat'iy nazar, u ham odam, o'ziga yarasha hamiyati, or-nomusi, vijdoni bor, biroq muayyan sharoitda Begimqul o'zini pulga urgan, yurak qo'rini, bilimi, kuch-qudrati, imkoniyatlarini boylikka tikkan, binobarin, lenincha prinspdan chekinilgan holda turmush kechirish holatlari hali ham ba'zan uchrab turadi va ular Begimqullarga qo'l keladi. Aniqrog'i, mehnatdan toplanmagan boylik ma'naviy qashshoqlikning urchishiga, avj olishiga imkon tug'dirib beradi va qayerda hallolik, adolat, haqiqat tantanasi ta'minlanmasa o'sha joyda qabohatlik, mudhishlik rivojlanaveradi. Lekin bu mudhishlik, qabohat yuqorida eslatilgan "Saboq" ocherkidagiday ko'zga yaqqol tashlanib yuravermaydi. Begimqullar buni umuman ko'raolmaydi. Negaki, ular ma'naviy qashshoqlikni keltirib chiqaruvchi sabablardan biridir. Bu "kasallik"ning manbalari muayyan shart-sharoitga borib taqalishi "Billur qandillar"da alohida ta'kidlanadi-yu, biroq chuqur tadqiq etilmaydi. Yana shunisi baxsliki, Odil Yoqubov ko'p

o'qib, madaniy o'choqlardan o'rinli foydalanadigan odamlar ma'naviy qashshoqlik balosiga yo'liqmaydilar, demoqchi bo'ladi. Bu fikrni butunlay noto'g'ri deyish qiyin. Lekin chin insoniylik xususiyatlaridan mahrum bo'lib, sof, musaffo, go'zal tuyg'ularga qalbi to'lib toshib turmagan shaxslar o'qish - o'rganish bilan davrimiz qahramonlariga ma'naviy-ruhiy jihatdan barkamol grajdanlarga kelib qo'shilishi amrimahol. "Billur qandillar"da yana nimalardir yetishmasligi seziladi, biroq Odil Yoqubovning bu asari chin ma'nodagi zamonaviylik ruhi bilan sug'orilgan bo'lib, ma'naviy qashshoqlik fojialarining oldini olishga, baxt-saodat tantanasi uchun kurashga, muhim ijtimoiy-axloqiy muammolar to'g'risida bosh qotirishga da'vat etadi.

Ba'zi adabiyotshunos- tanqidchilarning fikricha: "Billur qandillar"da qator fazilatlar bor, u zo'r qiziqish bilan o'qiladi, hayotiy lirizm bilan sug'orilgan, yozuvchi qahramonlar ichki dunyosini, xatti-harakatlarini chuqur yoritishga intiladi, intilish ko'p hollarda samarali yakunlanganu, biroq u gohida birdaniga lovillab yonib, so'ngra darrov so'nib qolgan gulxanday ta'sir ko'rsatadi, qissada nihoyatda yang, original tiplar yaratilgan deyish qiyin deyishadi.

Bu gaplarda jon bor: "Billur qandillar"da ma'naviy qashshoqlik oqibqtidan kelib chiqqan fojialar ro'yi rost ko'rsatiladi, biz Nilufarning 'billur qandillar'ga mahliyo bo'lib, muhabbati, baxtini qurbon qilganligi, Hikmatilloni esa o'sha muhitni yorib chiqaolmaganligini, Begimqulning faqat pul, boylikni yashashning negizi deb bilganligi va oqibatda boshi berk ko'chaga kirib qolganligini sezib olamiz, biroq bu voqealar keng ko'lamda chuqur tadqiq etilmaydi, konkret kuzatishlardan kuchli umumlashmalar chiqarilmaydi. Gap qissaning hajmini oshirish, xarakterlarning xususiyatlarini batafsil yoritish hisobiga "Billur qandillar"ni "semirtirish" to'g'risida ketmayapti. Gap shundaki, Odil Yoqubov illatlar, marazlarni mohirlik bilan ko'rsatadi, ularning kasridan muhabbat, baxt inqirozga yuz tutganini ishonarli ko'rsatadi.

III BOB. ADIB IJODIGA MASUB ASARLARNI UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA O'RGATISH USULLARI

3.1. Umumta'lim maktablarining 6-sinflarida “Muzqaymoq” hikoyasini o'rgatish.

Ijtimoiy hayotdagi yangilanish va o'zgarishlar adabiyotning o'zida ham, uni o'qitish sohasida ham yangicha yondashishni taqozo etmoqda. Keyingi yillarda adabiyot fanini o'qitish o'zining yangi metodlarini topib bormoqda. Bugun axborotlar oqimi shiddat bilan kuchayib borayotgan bir paytda kitob o'qishga, asar mohiyatini tushunishga, qahramonlar dardi, quvonchi bilan yashashga, ma'naviy ozuqa olishga e'tibor susayib bormoqda. Shunday bo'lsa-da, kitobxonlarga kitob inson ma'naviyatning ajralmas qismi ekani, inson ma'naviyatining shakllanishida adabiyotning roli kattaligini singdirish lozim.

Innovatsion jarayon turli yangiliklar, innovatsiyalarni yaratilishi, tarqalishi, tatbiq etilishi, tanlanishi, o'zgartirilishi va ishlatilishidir. Darsda innovatsion faoliyat xususiyati jihatidan novatsiya ko'lami va vaqti bo'yicha chegaralangan, innovatsiya esa yaxlit va davomli bo'ladi. Novatsiya natijasida amaldagi tizimda alohid elementlar o'zgartiriladi, innovatsiya natijasida esa amaliyot subyektlarining pozitsiyalari to'la yangilanadi, tizimdagi aloqalar va tizim isloh qilinadi.

Alohida qayd etish lozimki, ayni vaqtda ta'lim texnologiyasi tushunchasini mantiqiy-g'oyaviy jihatdan izohlash borasida yagona fikr mavjud emas. Bu borada taniqli olim N. Talizina “Amaliyotga tatbiq qilinadigan muayyan tizim loyihasi”¹ deya ta'riflaydi hamda asosiy diqqatni o'quv-pedagogik jarayonni oldindan loyihalashga qaratadi.

Zamonaviy innovatsion texnologiya, iloji boricha, o'quvchilarning tafakkurini faollashtirishga yo'naltirilgan. Shuning uchun o'qituvchi o'quvchilarga mavzu ustida bevosita o'zlari mustaqil faoliyat ko'rsatishlari, mantiqiy fikrlashlari va ma'lum xulosalar chiqarishi uchun imkoniyat yaratsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

¹ Талызина Н. Управление процессом усвоения знаний. Москва, МГУ, 1984, с.13.

Umumta'lim maktablarining 6-sinf adabiyot fani dasturiga O. Yoqubovning "Muzqaymoq" hikoyasi kiritilgan va hikoyani o'rganish uchun uch soat ajratilgan.

Umumta'lim maktablarida badiiy asar o'rganilar ekan, uni ilmiy va didaktik tahlil etib, xulosalar chiqarishga uriniladi. Badiiy asar tahlilidan ilmiy xulosalar chiqarish uchun ijodkorning tarjimai holi bilan tanish bo'lish talab etiladi. Shundagina u yoki bu hayotiy hodisaga adib qanday munosabatda bo'lganligidan xabardor bo'lish mumkin.

Maktab adabiy ta'limida ijodkorlar umr bayoni ikki sababga ko'ra o'rganiladi. Birinchidan adiblar millat ahlining diqqat e'tiborida turgan kishilar ularning shaxsiy hayoti va tabiatida o'quvchilar uchun namuna bo'ladigan jihatlar ko'p. Ana shundan kelib chiqib, bir soat adib O. Yoqubov hayoti va ijodini o'rganishga bag'ishlanadi.

O'zbek xalqiga xos odamiylik, mehmondo'stlik, ochiqko'ngillik, haqparvarlik, milliy qadriyatlarni ulug'lash O. Yoqubov asarlarining asl mohiyatini tashkli qiladi. Bunday umuminsoniy qadriyatlar esa bugungi yosh avlod tarbiyasida alohida ahamiyatga ega. Shu sababli umumta'lim maktablari 6-sinf «Adabiyot» darsligiga yozuvchining "Muzqaymoq" hikoyasi kiritilgan bo'lib, dasturda uni o'rganishga uch soat ajratilgan. O'qituvchi mazkur hikoyaga bag'ishlangan dastlabki mashg'ulotda o'quvchilarni asar mazmuni, g'oyaviy-badiiy jihatlar bilan tanishtirsa, keyingi soatlarda hikoya matnini tahlil qilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

XX asr mamlakatimiz hayotida ham fojialar, ham buyuk o'zgarishlar asridir. Xalqimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritguniga qadar ne-ne xo'rlik va qiynchiliklarni boshdan kechirdi. Millionlab asl insonlar arzimagan sabablar, tuhmat, adolatsizliklar tufayli tazyiqlarga uchragan, qamalgan va hatto otib, yo'q qilib yuborilgan davrlar bo'ldi. Bir millat vakili bo'lib bir mahallada yonma-yon yashab, bir-biriga yov, dushmanga aylangan odamlar ham, afsuski, ko'p uchradi. Ana shunday jamiyat barpo etib kishilarni qo'rquvga, dahshatga solib turgan

siyosat shoʻrolar zamonida necha oʻn yillar hukm surdi. Bu davr insoniyat tarixiga qatagʻon davri boʻlib kirdi. Bu siyosat oʻz haq-huquqini tanigan, ozodlik, erkinlikni istagan, pok, halol yashagan har bir ziyoli, har bir fuqaroga qarshi qaratilgan edi.

Adib Odil Yoqubov ham oʻz otasi taqdiri misolida qatagʻon davrining dahshatlari aks etgan bolalik xotiralarini qalamga oladi. Mehnatkash, halol sadoqatli otasining oʻz xizmatlari uchun tuhmatga uchrab, qatagʻon qilingan voqealarini tasvirlaydi.

Bu hikoya Prezident I. A. Karimovning “Yuksak maʼnaviyat - yengilmas kuch” kitobida taʼkidlangan quyidagi daʼvatning naqadar muhim ekanini yana bir bor tasdiqlaydi: “Xalqimiz va millatimizning yaqin oʻtmishidagi yopiq sahifalarni toʻla ochib berish, shu tarixdan saboq chiqarib, bugungi va kelajak hayotimizga ongli qarashni shakllantirish, begunoh qurbon boʻlgan insonlar xotirasini abadiylashtirish biz uchun ham qarz, ham farz”¹.

Boʻlajak yozuvchi ham oʻn yashar chogʻlarida otasining qoʻrquv va xavotir ichida yurgan kunlari guvohi boʻlgan. Otasi shoʻro idoralarida katta-katta lavozimlarda ishlagan, buvalari Yoqubshayx soʻfilik qilgani uchun oʻgʻli urilib, tuman moliya boʻlimiga kichik bir vazifaga tushirib qoʻyilgan. Qatagʻon siyosati avjiga chiqayotgan pallalar. Barcha tahlikada, bir-biridan gumonsiragan davrlar. Ana shunday kunlarning birida ota hibsga olinadi. Yozuvchi mazkur manzarani tasvirlar ekan, bir tomonda dahshatdan haykalday qotib qolgan otasi, dod-faryod solib yigʻlayotgan opasi, burchakka tiqilishib, qoʻrquvdan bir-birining pinjiga kirib olgan ukalari holatini koʻrsatib, qatagʻon davrining naqadar qoʻrqinchli bir hodisa ekanini oʻquvchi tasavvurida akslantiradi.

Hikoyada yozuvchi goʻyo yaqin doʻst, qoʻshni boʻlgan kishilarning dushmanga aylanishi, yaxshilik kutmagan odamlardan insoniy, samimiy munosabat koʻrganlarini tasvirlab, qaltis, sinovli holatlarda kishilarning asl

¹ Karimov I. Yuksak maʼnaviyat –yengilmas kuch. –T. Maʼnaviyat, 2008. –B.98.

mohiyati namoyon bo'lishini, kishining sirtiga qarab emas, qilgan ishi, og'ir vaziyatlarda o'zini qanday tuta olganligiga qarab baho berish lozimligini uqtiradi. Bu fikrlar xushsurat yigitcha - shahar komsomol qo'mitasi kotibining yozuvchi otasiga qamalguncha xushomad qilib yurib, musibatdan so'ng yovga aylanib, hatto bolani tahqirlashi, «Qashqirdan tug'ilgan qashqircha» deb haqoratlashi parchasida yoki yosh tatar o'qituvchining bolaga achinib, chekka-chekkada boshini silab, indamay hamdardlik bildirishi lavhalarida yaqqol aks etadi. Davr shunday yovuz ediki, hatto bolani otaga dushman qilib qo'yar edi. Sho'ro zamonida o'z otasini dushman sanab, qizil askarlarga tutib bergan Pavlik Morozov degan bola qahramonga aylantirilib, barcha maktab o'quvchilariga ibrat qilib ko'rsatilardi. Ana shunday targ'ibot-tashviqotlar ta'sirida asl voqelikni tushunmay yurgan hikoya qahramoni tintuv chog'i o'z uyida kitob javoni qulfini ochib berib, o'zini Pavlik Morozov deb maqtaganlaridan g'ururlanadi. «Xalq dushmanlari» sifatida qancha-qancha begunoh yurtdoshlarini abgor qiladigan mitinglarga chorlovchi nog'ora gumburi-yu, karnay-surnay sadolariga mahliyo bo'lib, uni chalayotgan pionerlar ketidan ergashib boradi. Bu tasvirlar orqali yozuvchi inson ichki dunyosining naqadar murakkabligini, yolg'on aqidalar, g'oyalarga ishontirilgan odam o'z yaqinlarining dushmaniga aylanishi mumkinligini ta'kidlaydi. Uni ma'naviy tanazzulga olib boradigan holatlarni ko'rsatib beradi. Ayni chog'da o'g'liga muzqaymoq olib berolmay, armonda qolgan otaning haqsizlik, tuhmatlar tufayli naqadar ojiz, g'arib bir ahvolga tushishi, adolatsizlik hukm surgan jamiyatning qanchalar insonlar qalbini zada qilganini tasvirlash orqali yozuvchi mustaqillikning qadriga yetish, o'shanday yovuzliklar bo'lmasligi uchun kurashish, mehr-oqibat, adolat g'oyalari barqaror bo'lishiga erishish fikrini ilgari suradi. O'quvchilarni bu borada ibratli xulosalar chiqarishga undaydi.

Odil Yoqubovning **“Muzqaymoq”** hikoyasi yuzasidan bir soatlik dars ishlanma.

Darsning maqsadi:

a) **talimiy maqsad:** “Muzqaymoq” hikoyasini o‘quvchilarga o‘rgatilayotganda, eng avvalo, o‘quvchilarga qatag‘on davrining dahshatli jihatlarini va buning oqibatlarini tushuntirib berib, shu davrning ayanchli qismati bilan hozirgi davrni solishtirib, ularda shukronalik ruhini uyg‘otish.

b) **tarbiyaviy:** o‘quvchilarni adabiyot darslariga hurmat ruhida tarbiyalash.

c) **rivojlantiruvchi:** o‘quvchilarni erkin fikrlash qobiliyatini o‘stirish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi

Dars usuli: suhbat.

Dars jihozi: darslik, tarqatmalar, har xil jadvallar, ko‘rgazmali qurollar.

Darsning borishi

Tashkiliy qism:

a) salomlashish

b) sinf tozaligiga e‘tibor berish

d) davomatni aniqlash.

O‘tilgan mavzuni takrorlash:

1. Abdulla Qahhor qachon va qayerda tug‘ilgan?

2. Abdulla Qahhorning qanday hikoyalarini bilasiz?

3. ”Bemor” hikoyasiga qanday so‘zlar epigraf qilib olingan?

4. “Bemor” hikoyasi orqali yozuvchi aks ettirgan hayot nmalardan iborat?

Yangi mavzu bayoni :

Odil Yoqubov 1926-yil 20-oktyabrda hozirgi Janubiy Qozog‘iston viloyatiga qarashli Qarnoq qishlog‘ida tug‘ilgan. O‘sha yerdagi maktabni tugallab, armiya xizmatiga ketgan. Keyin O‘rta Osiyo Davlat universitetining filologiya fakultetida o‘qiydi.

Yozuvchining dastlabki yirik asari 1951-yilda bosilib chiqqan “tengdoshlar” povesti edi. So‘ngra uning “Dastlabki qadam”, “Ikki muhabbat” hikoyalari to‘plami, “Tilla uzuk” qissa va hikoyalar to‘plamlari chop etiladi. “Chin muhabbat”, “Aytsam tilim, aytmam dilim kuyadi”, “Yurak yonmog‘i kerak”, “Olma gullaganda” pyesalari yaratiladi.

Birin-ketin “Bir fel’eton qissasi”, “Muqaddas”, “Qanot juft bo‘ladi”, “Izlayman”, “Billur qandillar” qissalari e‘lon qilinadi.

Odil Yoqubovning turli davrlarda yaratilgan “Er boshiga ish tushsa”, “Ulug‘bek xazinasi”, “Ko‘hna dunyo”, “Diyonat”, “Oqqushlar, oppoq qushlar” romanlari kitobxonning mehrini qozongan.

“Muzqaymoq” hikoyasi o‘n yashar murg‘ak bolaning boshiga tushgan og‘ir kunlar haqida yozilgan. Hikoya qahramonlari Egamberdi Yoqubov, Gulshan, o‘n yashar bola va uning ikkita opasi va pochchalari, qo‘shnisi shahar komsomol qo‘mitasining kotibi kabi obrazlarini aytish mumkin. Hikoya juda ta’sirli yozilgan va oxirida ayanchli yakun topgan.

5.O‘quvchilarni bilimlarini baholash.

6.Uyga vazifa berish.

7. Darsni yakunlash.

Hozirgi kunda ta’lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida tatbiq etishga bo‘lgan qiziqish, e’tibor kundan kunga kuchayib bormoqda. Bunga sabab shuki, ko‘p yillar an’anaviy ta’limda o‘quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalar esa ularning egallayotgan bilimlarini o‘zlari

qidirib topish, mustaqil o'rganib tahlil qilish hamda mustaqil xulosa chiqarishga o'rgatadi.

Maktab adabiy ta'limi jamiyat ma'naviy qadriyatlarini shakllantirishda eng ko'p ishtirok etadigan faoliyat turidir. O'quvchilarni adabiyotning sehrli olamiga olib kirish, ajdodlardan qolgan ma'naviy merosni kelajak davomchilariga yetkazish, ularni asrab-avaylashni, o'qiladigan asarlarning o'ziga xos tarovatini tushunishni shakllantirib borish zarur. Shu o'rinda, taniqli metodist olim Q. Yo'ldoshevning: "Adabiyot o'qitishning vazifasi qanchalik aniq, o'quvchining yosh va ruhiy xususiyatlariga mos bo'lsa, maqsadga erishish imkoniyati ham shunchalik yuqori bo'ladi"¹, degan fikrini ma'qul bildik.

Hozirda keng qo'llanayotgan innovatsion texnologiya - bu "Aqliy hujum".

"Aqliy hujum"—g'oyalarni generatsiya qilish usuli. Qatnashchilar birlashgan holda qiyin muammoni yechishga harakat qiladilar, uni yechish uchun shaxsiy g'oyalarini ilgari suradilar.

Aqliy hujum-sinfdagi har bir o'quvchi oldiga o'qituvchi qo'ygan savol yoki muammo yuzasidan o'z fikrini bayon etishga imkon beradi, ehtimol tutiladigan hamma fikrlar variantini bir yerga jamlay olishda bo'lib, to'g'ri bo'lmagan javoblar ham inobatga olinadi. Bu narsa bayon etilgan fikrlarning keyingi tahlilida o'quvchilarning qo'yilgan savol yoki muammoni to'g'ri tushunishlariga imkon beradi.

Qo'llanishi:

- savol, topshiriq yoki muammoni hal qilishda fikrlarni erkin aytishda;
- muammoni hal qilish qobiliyatini oshirishda;
- o'quvchilarning faolligini oshirishda;

¹ Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. 1996, 127-bet.

-asardagi kirish va asosiy mohiyat va mazmunini bilib olishga yordam beradi.

Bu usulning asosiy vazifasi - muammoni mustaqil tushunish va yechishga ta'lim oluvchilarning motivatsiyasini uyg'otish.

“Muzqaymoq” hikoyasini “Aqliy hujum” metodi orqali o'qitishda o'quvchilarga aqliy hujum qilinadi. Bu quyidagi ko'rinishda bo'lishi mumkin:

1. “Muzqaymoq” hikoyasi nega shunday nomlangan?
2. Hikoyada Egamberdi obrazi nima uchun qamoqqa mahkum qilinadi?
3. Hikoyada qaysi davrning ayanchli qismati aks ettirilgan?
4. Hikoyaga Pavlik Morozov obrazini kiritish nima uchun kerak?
5. Egamberdining shogirdi bo'lgan kotib nima uchun u qamalgandan keyin o'zgardi?
6. Hikoyada qamoqxonaning tasviri qanday berilgan?
7. Nima uchun bir xonadondan bir kishi qamalsa, uning qarindoshlari va qo'ni qo'shnilari aloqani uzgan?
8. Asar qahramonlarini sanang.
9. Hikoya kimni tilidan bayon qilinadi?
10. Asardagi ijobiy qahramonlar kimlar?
11. Hikoyada kim qamoqqa olinadi?
12. Asardagi shahar komsomollar qo'mitasining kotibini qilgan ishlarini qanday oqlaysiz?
13. Asardagi Pavlik Morozov qismati nima uchun yoritilgan?

14. Hikoyadagi grafin singanda ota-onaning bolaga munosabatini qanday izohlaysiz?

15. Hikoya qanday yakunlangan?

16. Asardagi bunday achinarli holatlarga kim aybdor?

2.2. "Ulug'bek xazinasi" romanini o'rgatishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish

Mustaqillik davri o'zbek adabiyotining yirik vakili Odil Yoqubov ijodi namunasi bo'lmish "Ulug'bek xazinasi" romanini to'rt soat mobaynida o'rgatish ko'zda tutilgan.

Adabiyot o'qituvchisi O. Yoqubov asarlaridagi aksar qahramonlarning g'oyat ta'sirchan, pokiza xulq kishilari ekaniga o'quvchilar e'tiborini tortishi va buning manbasi sifatida yozuvchi shaxsiyatini ko'rsatishi pedagogik maqsadga muvofiq bo'ladi. 1989-yilda sobiq tuzum davridagi siyosat o'z ta'sirini yo'qotmay turib, o'sha tuzum davridagi xalq deputatlari syezdida o'zbek xalqi boshiga tushgan adadsiz qiyinchiliklar haqida haq so'zni ta'sirli qilib dangal ayta olgan yagona kishi Odil Yoqubov bo'lgandi. Uning asarlaridagi Ulug'bek, Ali Qushchi, Qalandar Qarnoqiy, Beruniy, Malikul sharob, Ibn Sino, Normurod domla, Suyun Burgut singari e'tiqodidan qaytmas timsollar adib shaxsiyatidan suvlangandir.

Odil Yoqubovning ijodiy qiyofasi bolalar ko'z o'ngida to'g'ri gavdalanishi uchun o'qituvchi adibning ijodiy biografiyasiga batafsilroq to'xtalgani ma'qul. O. Yoqubov o'z ijodiy umri mobaynida hikoya, qissa, roman, drama, badiiy maqolachilik (publisistika) singari janrlarga mansub asarlar yozgan.

Yozuvchining hikoyachiligi o'quvchilarga oltinchi sinfda o'qiyotganlaridan beri tanish. Ular "Muzqaymoq" hikoyasini o'qib, uning ta'sirchan, sodda, baxtsiz qahramoni bilan uchrashishgan. "Yaxshilik" hikoyasida yangasiga yaxshi ko'rinmoqchi bo'lgan o'smirning iztiroblari mahorat bilan tasvir etilgan. Unda

niyat bilan amal o'rtasidagi nomuvofiqlikdan paydo bo'lgan ruhiy po'rtana jonli ko'rsatilgan.

O. Yoqubov ijodida qissachilikdagi mahorati, roman janri rivojiga qo'shgan hissasi haqida batafsil ma'lumotlar beriladi.

“Ulug'bek xazinası” romani O. Yoqubov ijodida ham, o'zbek adabiyoti taraqqiyotida ham muhim o'rin tutgan asardir. Bu roman tasvirning shiddati, obrazlar ruhiyatidagi tug'yonlarning qabariq tasvirlanganligi, timsollar tabiatining ishonarli ochilganligi bilan e'tiborga loyiqdir. Darslikda berilgan parcha to'rt qismga bo'lingan. O'qituvchi hech bo'lmasa a'lochi o'quvchilarning faqat darslikdagi parchani emas, balki butun romanni to'liq o'qib chiqishlariga erishsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Negaki, olingan parcha asar haqida bir qadar tasavvur beradi, lekin uning badiiy tarovatini to'liq ifoda eta olmaydi. Shuning uchun ham juda bo'lmasa, bir qism o'quvchilarning romanni o'qib chiqishiga erishish kerak.

Asarda Ulug'bek hayotining o'ta qaltis bir davri qalamga olinib, ana shu sharoitda bosh qahramonning ruhiy qiyofasi ochiladi. Garchi, Ulug'bek biz uchun asosan ulkan olim sifatida ma'lum bo'lsa-da, romanda uning hukmdor, ota va erkak sifatidagi qirralari katta mahorat bilan aks ettirilgan. O'ychil, fikrchan odamga yashash hamisha qiyin. Asarda Ulug'bekning ayni shu qirralari teran tasvir etilgan. Atrofida ro'y berayotgan har bir hodisa Ulug'bek Mirzo ruhiyatida aks-sado beradi. Romanda qirq yil saltanat surgan hukmdorning qandaydir daqiqalar ichida hokimiyatdan mahrum bo'lishi, butun ongli umrini o'tkazgan, uni obod qilish uchun tinim bilmagan Mirzoning o'z poytaxti bo'lgan Samarqand shahriga kiritilmasligi uni ulkan iztiroblar girdobiga tashlagani chuqur badiiy tadqiq qilingan.

Yozuvchining mahorati ana shunday holatga tushgan, hadsiz iztiroblar qurshovida o'rtanayotgan shaxsning tuyg'ularini haqqoniy va ta'sirli aks ettirishda ko'rinadi. Adib Ulug'bek Mirzoni yengilmas va qo'rqmas afsonaviy qahramon sifatida tasvirlaydi. U o'quvchi ko'z o'ngida o'z o'g'li tomonidan taxtdan

tushirilgan, yaqinlari tomonidan tashlab ketilgan, o'z mamlakatidan quvilgan, hatto joniga qasd qilingan odam sifatida gavdalanadi. Asarda Ulug'bekning haqoratlangan tuyg'ulari, toptalgan ishonchi tufayli junbushga kelgan ruhiy tug'yonlari butun haqqoniyligi bilan yaqqol namoyon bo'lgan.

Asarda yaxshilikka yaxshilik bilan javob berishga odatlangan Ali Qushchi, Qalandar Qarnoqiy, Temur Samarqandiy timsollari ham o'ziga xos va esda qolarli qilib tasvirlangan. Yozuvchining mahorati har bir obrazni o'z tabiatiga monand xatti-harakat qildirib olishida namoyon bo'ladi. Chunonchi, qilni qirq yoradigan olim osmon jismlari sirini biladigan mutafakkir, lekin odamlar munofiqligi darajasini bilmaydigan, oddiy shumliklarni qilolmaydigan Ali Qushchining xazinani eng oson topiladigan joyga berkitishida uning tabiatidagi to'g'rilik, quvlik-shumlikdan yiroqlik namoyon bo'ladi. Qalandar Qarnoqiyni esa qiyinchiliklarda obdon toblangan, qora kuchlarning yovuzligiga tilasin kuch bilan, tilasin tadbir bilan qarshi tura oladigan, ammo ezgulikka ezgulik bilan javob berishga hamisha shay turgan jo'mard yigitligi esdan chiqmaydigan qilib tasvirlanadi.

“Ulug'bek xazinasi” romanida padarkush Abdullatif timsoli ham yuksak mahorat bilan tasvirlangan. Odatda, badiiy asarlarda yomon xatti-harakatga qo'l uradigan timsollar juda jirkanch, hech qanday yovuzlikdan tap tortmaydigan, odamlarga qanday bo'lsa-da yomonlik qilishdan boshqa narsani o'ylamaydigan qiyofada tasvir etiladi. Ammo O. Yoqubov boshqacha yo'l tutadi. U Abdullatifni ham el qatori bir odam, bir qator fazilatlarga ega yigit, qo'ygan qadamining to'g'ri-noto'g'riligini o'ylayverib qiynalib ketgan hukmdor sifatida tasvirlaydi. U yomonlik qilib zavqlanganidan yirtqich emas, balki o'zi tushib qolgan, ehtimol, o'zi tayyorlagan chigal vaziyatning quli, nopok niyatlarning ham ijodkori va ham qurboni sifatida tasvirlangan. Badiiy timsolga bunday yondashuv o'quvchilarni hayot serqirraligini, tiriklikning biryoqlama emasligini tushunishga olib keladi. Bu hol o'quvchi shaxsi-ning kamolotiga xizmat qiladi.

Roman matnini o'rganish shunday tashkil etilishi kerakki, natijada o'quvchilar badiiy asarda ruhiyat tahlili degan nazariy ma'lumotning asosiy qismini asar tahlili asnosida o'zlashtirib olishlari mumkin bo'lsin. Shunda nazariy tushuncha amaliy ko'nikmalar yordamida hosil qilingan bo'ladi va o'quvchi xotirasiga mustahkam o'rinishadi.

Quyida O. Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi" romanini 9-sinf adabiyot darslarida o'rgatish yuzasidan bir soatlik dars ishlanmasi keltirilgan.

Darsning maqsadi: Odil Yoqubov ijodi "Ulug'bek xazinasi" romani xususida o'quvchilarda bilim va ko'nikmalar hosil qilish.

- a) ta'limiy maqsad:** badiiy asarda ruhiyat tahlilini shakllantirish;
- b) tarbiyaviy maqsad:** ushbu roman orqali hayotda ota va o'g'il munosabatlari, farzandlik burchi xususida bolalarda tasavvur uyg'otish.
- c) rivojlantiruvchi maqsad:** o'quvchilarning tafakkur olamini boyitish, asardan chiqarilgan xulosani hayotga tatbiq qilishga o'rgatish

Dars usuli: Munozarali bahs, suhbat, savol-javob, klaster usullari.

Dars turi: yangi bilim beruvchi.

Dars jihozi: 9-sinf darsligi. Odil Yoqubov hayoti va faoliyati bo'yicha fotosuratlar yaratgan roman va dramatik asarlaridan namunalari, tarqatmalar, slaydlar, texnik vositalar.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism:

- a) salomlashish;
- b) davomatni aniqlash;
- c) sinf tozaligiga e'tibor berish;

II. Uyga vazifani so'rash

Uyga vazifani so'rashda o'quvchilarga quyidagi savollar orqali murojaat qilinadi:

- 1) Oybek faoliyati haqida gapiring
- 2) "Qutlug' qon" romaning g'oyaviy-badiiy mazmuni qanday?
- 3) roman janri qachon paydo bo'lgan ?
- 4) Mirzakarimboy shaxsiyati haqida nimalarni bilasiz

III. Yangi mavzu bayoni:

Qozog'iston viloyatining Turkiston shahri yaqinidagi Qarnoq qishlog'ida dunyoga kelgan, bir qator asarlari bilan nafaqat o'zbek kitobxonlari, qolaversa dunyo nazariga tushgan ajoyib yozuvchimiz Odil Yoqubovdir. Odil Yoqubovning ilk asari "Tengdoshlar" qissasidir. Dramatik asarlari: "Aytsam tilim kuyadi, Aytmasam dilim", "Olma gullaganda", "Yurak yonmog'i kerak", "Chin muhabbat". Romanlari: "Er boshiga ish tushsa". "Ulug'bek xazinasini", "Diyonat", "Ko'hna dunyo", "Oq qushlar, oppoq qushlar".

Qissalari: "Billur qandillar", "Muqaddas", "Bir fel'eton qissasi", "Tilla uzuk", "Qanot juft bo'ladi", "Izlayman", "Larza" kabi bir qator nasriy asarlar muallifidir. Roman (fransuzcha "bayon qilish") inson hayotini muayyan badiiy makon va zamonda butun murakkabligi bilan, jamiyat va tabiat bilan aloqadorlikda har tomonlama to'liq tasvirlashga ko'p planli syujetga ega bo'lgan epik asar.

Roman janri markazida inson obrazi turadi. Bosh qahramon taqdiri, uning jamiyatda tutgan mavqei bilan har doim ham mutanosib bo'lavermaydi. O'zbek adabiyotida realistik romanchilik maktabiga asos solgan adib Abdulla Qodiriydir. Keyinchalik S.Ayniy, Cho'lpon, A.Qahhor, Oybek kabi adiblar romanning janr sifatida to'la shakllanishini ta'minlaganlar.

Mavzu yoʻnalishiga koʻra romanlar tarixiy, falsafiy, siyosiy, maishiy, biografik, fantastik, detektiv kabi xillarga boʻlinadi Odil Yoqubovning "Ulugʻbek xazinasini" mavzu yoʻnalishiga koʻra tarixiy roman hisoblanadi.

Tarixiy romanning yetuk koʻrinishi hisoblangan "Ulugʻbek xazinasini" asari Temuriylar davrida, xususan Mirzo Ulugʻbek davri, hayoti, jamiyatdagi adolatsizliklar, koʻngilsizliklar badiiy yoʻsinda gʻoyat mahorat bilan tasvirlangan. Asarda ilm rahnamolari sifatida Mirzo Ulugʻbek, Ali Qushchi, Qalandar Qarnoqiylar tilga olinsa, bevosita tarix uchun hech narsadan voz kechmaydigan, mamlakat taqdiri bilan umuman qiziqmaydigan personajlar sifatida Abdullatif, Xoja Salohiddin zargar, Mironshoh, Sultonjon kabilarni aytib oʻtish mumkin. Asarda hech bir ish jazosiz qolmasligi va ota qotili "padarkush" taqdiri ham yoritib berilgan. "Padarkush" Abdullatif Mirzoning Nizomiy Ganjaviy kitobidagi taqdiri: "Padarkush", toju taxt olti oy..." aynan asarning tarbiyaviy, taʼlimiy qimmatini oshirgan. Ruhiyat tahlili ham asarda juda mohirona tasvirlangan. Yozuvchi oʻtmishda nima boʻlganini aytibgina qolmaydi, balki oʻtmishdagi yovuzlikni sodir etganlar yoki undan jabr koʻrganlar qanday sezimlarni kechirganliklarini, qanday ruhiy holatga tushganliklarini ham ishonarli qilib koʻrsatib beradi. Asarda voqealar eskirgan, lekin qahramonlarning ruhiy holatlari hech qachon eskirmaydi. Ularning haqqoniy tasviri barcha davrlarda kishilarga taʼsir qilaveradi. Shuning uchun ham, bu roman hech qachon adabiyot marvaridlari qatoridan tushmaydi.

IV. Darsni mustahkamlash:

1. Mirzo Ulugʻbek va Abdullatif munosabatlarini qanday baholaysiz?
2. Mirzo Ulugʻbekka xiyonat qilganlar kimlar edi?
3. Nizomiy Ganjaviy kitobidagi taqdir bashoratiga munosabatingiz.
4. Ali Qushchi obrazini qanday talqin qilasiz?
5. Mirzo Ulugʻbek ilmiy faoliyatidan qanday maʼlumotlarga egasiz?

6. Abdulatif ruhiyatidagi tiyiqsiz o'zgarishlarga tayanib, inson tuyg'ularining omonatligi to'g'risida to'xtaling?

7. O'zbek adabiyotida yana shu mavzuda kimlar qalam tebratgan?

8. Asardan olgan xulosangiz qanday, asar syujeti, g'oyasiga munosabatingizni bildiring?

V. Uyga vazifa: "Ulug'bek xazinasi" romanining to'liq matni bilan tanishish va asardan chiqarilgan xulosalarni yozma insho tarzida bayon qilib kelish.

VI. O'quvchilar bilimini baholash. Darsda faol qatnashgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

"Ulug'bek xazinasi" romanini quyidagi usullar orqali ham o'rgatish mumkin:

Sinf o'quvchilari ikkita guruhga ajraladi. Guruhlar o'zlariga nom tanlashadi. Darsda mavzuni yoritishda guruhlar uchta shartni bajaradilar. Birinchi topshiriqda har bir guruh o'zbek adabiyotining yetakchi yozuvchisi Odil Yoqubov haqida ma'lumot beradi.

Ikkinchi topshiriqda "Ulug'bek xazinasi" romani qahramonlarini ijobiy va salbiy kabi guruhlariga ajratadilar va ushbu obrazlar haqida ma'lumot beradilar.

Uchinchi shartda har ikkala guruh qatnashchilari asardan berilgan parchadan foydalanib, sahna ko'rinishini ijro etadilar va xulosalar chiqaradilar.

Ushbu topshiriqlarni bajarish jarayonida guruh a'zolarining faollik darajasiga qarab ularni rag'bat yoki jarima kartochkalari bilan baholab boriladi. Dars oxirida ushbu natijalar hisoblanib, g'olib guruh e'lon qilinadi.

Birinchi guruh ya'ni **"Ma'rifatchilar"** guruhi "Ulug'bek xazinasi" romanidagi qahramonlarni tarixiy va to'qima obrazlarga ajratadilar:

Tarixiy obrazlar: Mirzo Ulug'bek, Abdulaziz, Abdulmo'min, Ali Qushchi, Abdullatif.

To‘qima obrazlar: Piri Zindoniy (Qalandar Qarnoqiy).

Ikkinchi guruh ya’ni ”**Munajjimlar**” guruhi esa o‘sha romandagi obrazlarni ijobiy va salbiy qahramonlarga ajratadilar:

Ijobiy obrazlar: Mirzo Ulug‘bek, Ali Qushchi, Amir Burhoniddin.

Salbiy obrazlar: Abdullatif, Amir Jondor.

Har bir guruh a’zolari kartochkadagi ma’lumotlar yuzasidan chiqish tayyorlaydilar. Bu chiqish shunday tarkibiy tuzilmaga ega bo‘lishi kerakki, boshqa o‘quvchilar undan yangilik ola bilsin va uni o‘zlashtirsin. Buning uchun o‘qituvchi savol-topshiriqlar ko‘magida o‘quvchilarni timsolning asardagi o‘rni va mohiyati, xarakter xususiyati yuzasidan fikrlashga yo‘naltirib turadi. Shu tarzda o‘quvchilar har bir guruh chiqishidan so‘ng timsollar haqidagi boshqa qo‘shimcha ma’lumotlarni ham bilib oladilar.

O‘qituvchi doskaga yozilgan fikrlarga yana qo‘shimchalar qilish mumkinligini aytadi. Dastlab har bir guruh a’zolari o‘zlari yozgan fikrlar (klasteri)iga, o‘z qo‘shimchalarini kiritadilar. So‘ngra o‘qituvchi birma-bir, har bir timsol yuzasidan doskada yozilgan fikrlarga to‘xtalib, qo‘shimchalar qiladi.

“KLAUSTER” USULI



O‘qituvchi o‘quvchilarning diqqatini har bir timsolga alohida qaratib, shu timsol haqidagi xulosalarni umumlashtiradi.

O‘quvchilar guruhdagi fikrlarni to‘ldirishdagi ishtirokiga, yakuniy savol-javobdagi faolligiga qarab baholanadi.

Shundan keyin, asar mazmuni asosida kichik sahna ko‘rinishi o‘quvchilar tomonidan namoyish qilinadi. Zero, mashhur Xitoy faylasufi Konfutsiy aytganidek: “Aytsang unutaman, ko‘rsatsang eslab qolaman, o‘zim bajarib bilib olaman”, shioriga amal qilgan holda dars olib borilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Quyida o‘sha sahna ko‘rinishining senariysini keltiramiz:

Boshlovchi:

Mirzo Ulug‘bek qirmizi poyandoz to‘shalgan xiyobondan ohista yurib orqaga qaytarkan, darvozaning yonida oq ko‘pikka cho‘milgan bir necha otlarni

koʻrdi. Koshonadan chiqqan shahzoda Abdulaziz bilan qoʻlida maktub ushlagan shayxulislom Burhoniddin shosha-pisha unga tomon yurishdi.

Burhoniddin:

-Qayda yuribsiz, hazratim? –Amir Iskandar barlosdan chopar kelibdur.

Mirzo Ulugʻbek:

-Tagʻin ne mujda?

Boshlovchi:

-Mirzo Ulugʻbek toʻxtab nomaga qoʻl choʻzdi.

Burhoniddinga Mirzo Ulugʻbek:

-Shahzoda lashkari yurish boshlabdur. Lashkarlarida fillar bor emish.

Burhoniddin:

-Davlatpanoh ne farmon bergaysiz?

Mirzo Ulugʻbek:

-Ollo taolo peshonaga neni yozgan boʻlsa, shu boʻlar, taqsir.

Burhoniddin:

-Inshoolloh, heshonangiz yorugʻ boʻlgʻay. Vaillo...

Mirzo Ulugʻbek:

-Jang –jadal qilmoq!...

Burhoniddin:

-Dorussaltanaga qaytmoq darkor, onhazratim! Qalʼa mustahkam...

Mirzo Ulugʻbek:

-Hayot! –Shahzoda tosh otgʻuvchi arrodalar bordur, taqsir! Butkul shahar zer zabar boʻladi! Butkul shahar!

Amir Burhoniddin:

-Vallohi aʼlam bissavob! Va lekin shaharni ololmas, sultonim! Jamiki masjidlarda xutba oʻqiturmen.

Barcha fuqaro oyoqqa turadur, davlatpanoh!...

Mirzo Ulugʻbek:

-Oʻylab koʻrmoqdakor, taqsir!

Boshlovchi:

-Mirzo Ulugʻbek qovogʻini uyganicha koshona tomon yurdi. Bobo Husayn yoʻllagan nomani oʻqirgan, xayoliga bir fikr keldi: dorussaltanaga qaytib va uning darvozalarini berkitib olib, shahzoda bilan sulh-saloh tuzsa ne qiladi: Yoʻq, shahzoda uning taxtda qolishiga koʻnmas.

Lekin Mirzo Ulugʻbekga minbaʼd tojʼ- u taxt kerak emas! Shahzoda uning rasadxonasi-yu madrasasiga tegmasa, maʼrifat yoʻlidagi ishlarini man etmasa, u tinchgina ilm-u idrok bilan mashgʻul boʻlsa-bas! Unga shunday boshqa ne kerak?

Lekin shahzodani bu shartlarga koʻndirish uchun fuqaroni safarbar qilib boʻlsa ham, mudofaaga oʻtmoq darkor.

Mirzo Ulugʻbek:

-Siz Damashqda qolib, Iskandar barsos suvoriylariga koʻmak bergaysiz, amir! Boshingiz ketsa-da, shu bugun shahzoda lashkarlarini toʻxtatgaysiz Farmoni oliy ayonmi?

Amir

-Ayon davlatpanoh!

Mirzo Ulug‘bek:

-Sen ikki shahzodani olib, darhol dorussaltanaga chopqaysen. Dorug‘a Mironshohga amri oliyni yetkazgaysen: barcha a‘yon-u boyonlar darhol Ko‘ksaroyga yig‘ilsin. Mashvarat qilurmen.

Keyin ikkinchi guruh ya‘ni “**Munajjimlar**” guruhi “Mirzo Ulug‘bek” romanidagi Ulug‘bekka darvozalarning ochilmasligi voqealarini sahnalashtiradilar.

Qorong‘u tusha boshlaganidan bezovtalangan Mirzo Ulug‘bek otiga qamchi urdi. Shu payt oldinda, allaqanday g‘alayon ko‘tarildi, ilgarilab ketgan navkarlarning qattiq-qattiq tovushlari eshitildi. So‘ng bir guruh suvoriylar ot choptirib kelib, Mirzo Ulug‘bekka yetmay to‘xtadi.

Mirzo Ulug‘bek qilichini qinidan sug‘urib oldi.

Mirzo Ulug‘bek:

-Bu kim?

Saroybon:

-A‘lohzratlari afv etsinlar! Biz dorussaltanatga borib qaytdik!..

Ketma-ket ot choptirib kelgan shahzoda Abdulaziz bilan tund yuzli saroybon armug‘onini niqtab oldinga o‘tdi.

Saroybon:

-Davlatpanoh

Mirzo Ulug‘bek:

-So‘zla!

Saroybon:

-Darvozalar yopilgan. Salohdorlar darvozalarni ochmoqdin bosh tortadur, hazratim...

Mirzo Ulug‘bek:

-Yolg‘on!

Saroybon:

“Yo parvardigor!...”

Mirzo Ulug‘bek:

-Dorug‘a Mironshoh qayda? Darvozada bormu?

Saroybon:

-Yo‘q, onhazratim! Dorug‘a darvozaga kelmoqdin bosh tortibdi.

Mirzo Ulug‘bek:

-Bo‘shat yo‘lni!

Mirzo Ulug‘bek shunday deb baqirdi-da, betoqat pishqirgan oq bedoviga qamchi bosdi. Achchiq qamchiga o‘rganmagan arabiy arg‘umoq osmonga sakradi-yu, shamolday uchib ketdi...

Suvi ko‘klamdayoq qurib chuqur xandaq yonida Mirzo Ulug‘bekni yana bir guruh navkarlar qarshi oldi. Ular orasida shahzoda Abdulaziz bilan jiyanlari Abdulla va Abu Said Mirzo ham bor edi. Uchala shahzoda ham asabiy holatda u yoqdan-bu yoqqa ot o‘ynatib yurishar edi. Mirzo Ulug‘bek shahzodalarga e‘tibor bermay chuqur xandaqdan ot choptirib o‘tib, do‘nglikdagi darvoza oldida to‘xtadi.

Qilichi bilan darvozani “shaq-shaq” urgan edi, tepadagi minoradan:

Darvozabon:

-Bu kim?

Mirzo Ulug‘bek:

-Bu men! –Sohibi toj Mirzo Ulug‘bek Ko‘ragoniy

Darvozabon:

-“Darvozai ohanin” namozi asrdan so‘ng shoh-u gado-barchasiga yopiqdur!

Mirzo Ulug‘bek:

-Och darvozani, mal’un!

Darvozabon:

-Alo hazratlari afv etsinlar! –dedi boyagi

-Dorug‘a Mironshoh janoblari farmon qilmishlar, darvoza ochilmaydur!

Mirzo Ulug‘bek:

-Sohibi saltanat men bo‘lurmen. Barcha farmonlarim amri vojib erur!...

Darvozani och yo dorug‘ani chaqir, yoxud boshing ketadi, salohdor!

Sulton Jondor:

-Salohdorning boshini olishga qo‘ling kaltalik qiladur!

Buning boshi emas, o‘z boshingga ehtiyot bo‘lg‘il, Muhammad Tarag‘ay!

Mirzo Ulug‘bek:

-Voajabo! Bu mal’un lashkarni tashlab qochganda...dorussaltanatga kelgan ekan-da! Lekin qachon, qaysi yo‘ldan o‘tib keldi? Unga darvozani kim, nechun ochdi?... Bu beimon kazzoblar qachon til biriktirgan? Bu diyonatsiz insonlar, bu amir-u umarolar, arkoni harb va arkoni davlatlardan hazar, alhazar! Qayga bormang, hammayoqda makkorlik, razolat va riyokorlik!

-Amir sulton Jondor! Humo qushi kimning boshiga qo‘nur, buni yog‘iz haq taolo biladur. Humo qushi meni tark etsa sening baxting! Va lekin falakning, gardishi bilan, toj-u taxt qo‘limda qolsa... esingda bo‘lsin: oyog‘ingdan dorga osib, ostindan o‘t qo‘yamen!

U Mirzo Abdullatifga bosh egishga, yaxshilik bo‘lsa-da, yomonlik bo‘lsa-da, o‘z zurriyotidan ko‘rishga ahd qildi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, O. Yoqubovning “Ulug‘bek xazinası” asari matni tahliliga o‘quvchilarning o‘zlari shu tariqa yakka va hamkorlikda ishlash orqali kirishsalar, to‘la tasavvurga ega bo‘ladilar.

Demakki, o‘qituvchi o‘quvchilarga muammo tanlashda, u hattoki asarning eng elementar bir qirrası yoki obrazi bo‘lsa-da, asosiy mazmunni ochishga qaratilgan bo‘lishi va o‘quvchilarni aniq maqsadning yechimi tomon yetaklovchi mohiyat sari yo‘naltirishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyati mamlakatlari qatoridan munosib o‘rin egallashi, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jihatdan taraqqiy etishi, xalqaro munosabatlarni tashkil etishda demokratik va insonparvarlik tamoyillarining ustuvor bo‘lishiga erishishi qat’iy ma’naviy-axloqiy sifatlarga ega bo‘lgan, muayyan soha bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarni puxta o‘zlashtirgan, kasbiy faoliyatida yutuqlarga erisha oladigan yangi kadrlarning tayyorlanishiga bog‘liq. Shu ma’noda o‘quvchi-yoshlarga ta’lim jarayonida ajdodlarimiz qoldirgan boy ma’naviy meros mazmunini, shu jumladan, adabiyotimizdagi yaratilgan asarlardagi g‘oyalarni zamonaviy ta’lim usullari orqali to‘laroq singdirish, ularda ham buyuk adiblar o‘z qahramonlari siymosida ifodalagan ibratli xususiyatlarni shakllantirish, jamiyatimiz taraqqiyoti uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy faol hamda mustaqil fikrga ega bo‘lgan yoshlarni tarbiyalash hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Mavzuga ajratilgan soatlarning oxirgi soatida badiiy adabiyotda ruhiyat tahlili tushunchasi “Ulug‘bek xazinası” romani misolida tushuntirib beriladi.

Ma’lumki, ruh o‘ta murakkab tushuncha. Uni sezgi muchalarining birortasi bilan his qilish mumkin emas. Ruhiyatga daxldor narsalarni ko‘ngil bilan tuyish mumkin xolos. Demak, ruh odamning ko‘ngliga tegishli narsa ekan. Inson aqli ruhni to‘la tushunishga ojizlik qiladi. Qur’oni Karimda ham ruhning izohini

odam tushunolmasligi ta'kidlangan. Lekin har bir odam o'zida aqldan tashqari yana qan-daydir bir qudrat ham borligini biladi. Shuning uchun ba'zan odam aqliga ma'qul kelmasada, ko'ngliga o'tirishgan ishni qilgisi keladi. Ayni shu holat badiiy asarlar-ning qahramonlarida ham o'z aksini topishi kerak. Ya'ni adabiy qahramonlarning xatti-harakatlarigina emas, balki ko'ngil kechinmalari ham ularning tabiatlariga muvofiq bo'lishi kerak.

Qachondir qilingan ish, aytilgan fikr, so'zlangan so'z eskirishi mumkin, lekin inson ruhiyatining xususiyatlari hech qachon eskirmaydi. Shuning uchun ham badiiy ijodda odam ruhiyati tasviriga katta e'tibor qaratiladi. Siz badiiy asarlarda inson ruhiyatining tushuntirib berish qiyin bo'lgan jihatlari tasviriga ko'p marta duch kelgansiz. Chunonchi, raqibini yiqitilmagan Alpomishga qarata Oybachin tomonidan aytilgan: "Qizlar sizni narmoda deb aytadi, Qizlarning aytgani menga botadi. Mardlar olishmaydi siltab otadi, Maydon bo'lsa, ish ko'rsatib ketadi" so'zlar yigit ruhiyatini ostin-ustun qilib yuborgani va shu vaqtgacha eplolmagan dushmanini ko'kka otgani bizga ma'lum. Yoki birovga qo'pol gapirishni bilmaydigan Otabekning uch yovuz dushmanga qarshi yolg'iz jangga kirishi ham uning ruhiyatida kechayotgan jarayonlarga mos.

"Ulug'bek xazinasini" romanidagi har bir personajning qilgan ishi, aytgan gapi uning ruhiy holatiga mos keladi. Qanchalar yovuz va shuhratparast bo'lmasin, otasiga tig' ko'tarish Abdullatif uchun ham oson kechmaydi. Asarda o'g'liga qarshi kurashishi lozim otaning ham, ota halokatiga sabab bo'lgan bolaning ham ruhiyati juda ta'sirli va ishonarli ko'rsatilgan. Yozuvchi o'tmishda nima bo'lganini aytibgina qo'ymaydi, balki o'tmishdagi yovuzlikni sodir etganlar yoki undan jabr ko'rganlar qanday sezimlarni kechirganliklarini, qanday ruhiy holatga tushganliklarini ham ishonarli ko'rsatib beradi. Ayni shu holat bu romaning ta'sirchanligini ta'minlagan. Negaki, gap voqeada emas. Sababi, bo'lar ish bo'lgan, voqealar eskirgan, lekin qahramonlarning ruhiy holatlari hech qachon eskirmaydi. Ularning haqqoniy tasviri barcha davrlardagi kishilarga ta'sir qilaveradi.

Badiiy ijodda ruhiy tahlilning oʻrni katta. U yoki bu badiiy asar insonning ruhiyatini qanchalik teran va ishonarli aks ettirishiga qarab baholanadi.

Adabiyot oʻqituvchisi O. Yoqubov asarlaridagi aksar qahramonlarning gʻoyat taʼsirchan, pokiza xulq kishilari ekaniga oʻquvchilar eʼtiborini tortishi va buning manbasi sifatida yozuvchi shaxsiyatini koʻrsatishi pedagogik maqsadga muvofiq boʻladi. Uning asarlaridagi Ulugʻbek, Ali Qushchi, Qalandar Qarnoqiy, Beruniy, Malikul sharob, Ibn Sino, Normurod domla, Suyun Burgut singari eʼtiqodidan qaytmas timsollar adib shaxsiyatidan kelib chiqqandir. Unda niyat bilan amal oʻrtasidagi nomuvofiqlikdan paydo boʻlgan ruhiy poʻrtana jonli koʻrsatilgan.

Darslikda berilgan parcha toʻrt qismga boʻlingan. Oʻqituvchi hech boʻlmasa aʼlochi oʻquvchilarning faqat darslikdagi parchani emas, balki butun romanni toʻliq oʻqib chiqishlariga erishsa, maqsadga muvofiq boʻladi. Negaki, olingan parcha asar haqida bir qadar tasavvur beradi, lekin uning badiiy tarovatini toʻliq ifoda eta olmaydi.

XULOSA

Ushbu bitiruv malakaviy ishimizning mavzusi “Odil Yoqubov qissalarida zamondoshlar obrazi talqinidagi oʻziga xoslik” deb nomlandi. Biz mazkur kichik tadqiqotimizda yangi oʻzbek adabiyotining zabardast vakili Odil Yoqubov ijodiga diqqatimizni qaratdik. Tadqiqot obyekti boʻlgan Odil Yoqubov ijodi shu bugunga qadar adabiy jamoatchilik tomonidan oʻz bahosini olib kelgan. Adibning hikoyalari qissalari, romanlari va dramalari kitobxonlar tomonidan iliq kutib olingan va shu bugunga qadar yozuvchining turli janrlarda bitilgan asarlari oʻz oʻquvchilarini topib kelmoqda. Bitiruv malakaviy ishimizda eʼtiborni Odil Yoqubovning bir qancha hikoyalarga “Qaydasan, Mariko” qissasiga, “Diyonat”, “Oqqushlar, oppoq qushlar” romanlariga va “Bir koshona sirlari” dramasiga qaratdik. Odil Yoqubov ijodiga mansub asarlarni tahlil qilar ekanmiz, quyidagicha xulosaga keldik: